

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK - _____

JUMAYEV SHERALI O'TKIROVICH

**XALQ HUNARMANDCHILIGI MISOLIDA KOLLEJ
O'QUVCHILARINI AMALIY SAN'ATGA O'RGATISHNING
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

5A140901 - Kasb ta'limi (Amaliy san'at) mutaxassisligi

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga ruxsat berildi.

Ilmiy rahbar: t.f.n dots.

_____M.Umarov

**“ Badiiy grafika va uni o'qitish metodikasi” kafedrası
mudiri dots. M. Umarov_____**

M.O'

SAMARQAND-2012

Mavzu: Xalq hunarmandchiligi misolida kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatishning pedagogik shart sharoitlari

Kirish.

I BOB. Kasb-hunar kollejlarda hunarmandchilik darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkel etish.

- 1.1. Kasb-hunar kollejlarda hunarmandchilik darslarini samaradorligini oshirish uchun fan o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar.
- 1.2. Kollej o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda sharq olimlarining pedagogik qarashlaridan unumli foydalanish
- 1.3. Kasb-hunar kollejlarda ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, hunarmandchilik sirlarini o'rgatishni takomillashtirish.

II BOB. Kasb-hunar kolleji talabalariga hunarmandchilik sirlarini o'rgatishda milliy qadriyatlarimizni tutgan o'rni.

- 2.1. Qadriyatlarimizni saqlash uchun mamlakatimizda olib borilayotgan chora tadbirlar va ularni o'quvchilar ongiga singdirish.
- 2.2. Dars jarayonida milliylik ramzlaridan samarali foydalanib, o'quvchilarda hunarmandchilik sirlarini rivojlantirish .
- 2.3. Hunarmandchilikni revojalntirishda o'zbek xalq amaliy san'ati to'garak mashg'ulotlaridan keng foydalanish.

III.BOB Xalq hunarmandchiligi misolida kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatishning shakl va yo'llari.

- 3.1. Kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.
- 3.2. Tajriba sinov ishlari natijalari.

Umumiy xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

Ilovalar

Kirish

Tadqiqotning dolzarbligi mamlakatimiz ijtimoiy –siyosiy hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim sohasida ham ijobiy tub o'zgarishlar bo'lmoqda .

O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risidagi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi “ ta'lim, jumladan oily pedagogik ta'lim muassasalari xodimlari oldiga pedagogik kadrlarni tayyorlashni tubdan yaxshilash vazifalarini qo'ymoqda.

O'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablarida o'quvchilarni xunarmandchilik sirlariga o'rgatishda ta'limining zamonaviy uslublaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun kasb –hunar kollejlari amaliy san'at ta'limining yangi mazmunini shakillantirishning ilg'or pedagogik texnologiyalari, zamonaviy o'quv uslubiy majmualar, o'quv tarbiya jarayonining didaktek jihatlarni taminlash va mazkur sohaga o'qitishining ilmiy amaliy masalalarini to'g'ri hal etish hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Biz tanlagan bitruv ishimiz mavzusiga asosan yuqoridagi masalani hal qilish yo'llarini yangi pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirib izlanishlar olib bordik. Respublikamiz nashriyotlarida chop etilgan darslik, o'quv uslubiy qo'llanmalarni o'qib, o'rganib tahlil qilimiz shuni ko'rsatdiki, hali xalq hunarmandchiligi misolida kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatish metodik jihatdan to'liq o'rganib chiqilmagan.

Respublikamiz olimlaridan professor S.S.Bulatov, R.Xasanov, dotsent R.Shobaratov, Q.Qosimov, A.Turdialiev, O.Xudayorova va boshqa amaliy san'at, kasb- hunarga aloqador xalq hunarmandchiligini turli no'qtasini tadqiq qilganlar. Jumladan, professor Bulatov S.S o'zining “O'zbek xalq amaliy bezak san'ati” metodik qo'llanmasida xalq amaliy bezak san'ati turlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etishga hamda o'tkazishga bo'lgan shart sharoitlar, o'qitishning nazariy- metodik asoslari hamda dasturlar bayon etilgan, atamalarning izohli lug'ati berilgan.

Shuningdek “Ganchkorlik” qo’llanmasida esa o’zbek xalq dekarativ amaliy san’atining eng qadingi gurux bilan gancho’ymakorligiga bag’ishlanadi. Unda ganchkorlik san’ati tarixi rivojlanishi va o’z kasbini yoshlarga o’rgatish usullari bayon etilgan.

Shobaratovning P Kompazitsiyasi O’quv qo’llanmasi amliy san’at o’qitishning o’quv jarayonini tashkil qilish, va mashg’ulotlar kompozitsiyalarini maqsad va vazifalari ko’rsatib o’tilgan. O’quv –qo’llanma boshqa mutaxassisli; fanlari bilan uyg’unlashgan holda o’quvchilar olgan bilimlarini keyingisi bilan to’ldirib borishda yordam beradi.

Professor Xasanov R “Maktabda tasviriy san’at o’qitish metodikasi” nomli darsligida tasviriy va amaly san’atning o’qitish metodlarida kerak bo’ladigan barcha nazariy va metodik bilimlar berilgan.

Xasanov R “Boshlang’ich sinflarda naqsh chizish metodikasi” nomli o’quv qo’llanmasida naqsh chizishning o’ziga xos xususiyatlari ranglar va ularni ishlatish, ranglarining xususiyatlari, naqsh kompozitsiyalari haqida etarlicha ma’lumotlar beriladi.

Q.Qosimov “Naqqoshlik” nomli asarida naqqoshlik san’atining taraqqiyot yo’li, naqqoshlik tugragining mazmuni uchun o’qtishning nazariy asoslari naqsh solishga o’rgatish metodikasi bayon etilgan.

Yuqorida ko’rsatilib o’tilgan darslik o’quv metodini adabiyotlarini o’rganishimiz asosida mavzumizni nomini **xalq hunarmandchiligi misolida kollej o’quvchilarini amaliy san’atga o’rgatishning pedagogik shart sharoitlari** deb belgilab oldik.

Kasb-hunar va kollejlari va hunarmandchilik sirlarini yangi pedagogik va muammoli ta’lim metodlaridan foydalangan holda olib borilsa dars samaradorligini oshirishga erishiladi. O’quvchilar darslarni ilmiy asosida tushunishlari osonlashadi, dars talablarini boshqarishda ularni malakasi oshadi va fazoviy tasvvurlari kengayadi. Mavzu kafedramiz magistrlik dissertatsiyasi umumiy yo’nalishiga mos keladi.

Ilmiy tadqiqot ishimizning maqsadi:

Xalq hunarmandchiligi misolida kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatishning pedagogik shart –sharoitlarini aniqlash va o'qitishning zamonaviy texnologiyalarini qo'llash usullarini takomillashtirish.

Ilmiy tadqiqot ishimizning vazifasi:

- dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish.
- kasb-hunar kollejlarda hunarmandchilik darslari samaradorligini oshirishga bo'lgan asosiy talablarni aniqlash,
- kollej o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda sharq olimlari pedagogic qarashlaridan foydalanish yo'llarini toppish
- kasb-hunar kollejlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib hunarmandchilikni o'rgatish usullarini takomillashtirish.
- turli tadbirlar vositasida hunarmandchilikni o'quvchilar qalbiga singdirish.
- turli rasmlar va didaktik materiallardan foydalanishni rivojlantirish.
- hunarmandchilikni o'quvchilar ommasi orasida keng targ'ib qilish va ishimizni tajriba qilib sinovdan o'tkazish.

Bitiruv ishimizning predmeti:

Kasb-hunar kollejlari va umumiy ta'lim maktablari o'quvchilariga hunarmandchilik o'rgatish jarayoni.

Ilmiy faraz yoki gipotiza:

- tasviriy va amaliy san'at darsliklarida yangi pedagogik texnologiyalaridan foydalanishni o'quvchilarga qo'yiladigan talablari aniqlansa;
- hunarmandchilikka o'rgatish jarayonida o'quvchilar bilimi oshirib borilsa;
- o'quvchilarda hunarmandchilikka oid amaliy san'at va kasbga qiziqish uyg'otilsa;
- hunarmandchilikka oid darslarni olib borishda tugarak mashg'ulotlarining imkoniyatlaridan ham samarali foydalanilsa yaxshi natijalarga erishish mumkin.

. **Tadqiqot obekti etib;** Samarqand qurilish va milliy xunarmandchilik kollejlari amaliy san'at mashg'ulotlarini o'tkazish jarayoni tanlandi.

Tadqiqot ishlarining ilmiy yangiligi: kasb-hunar kollejlari va umum ta'lim maktablarida amaliy san'at darslari orqali hunarmandchilik sirlarini o'rgatib, muommoli ta'lim metodlaridan, dedaktik vositalardan foydalanish orqali o'quvchilarga hunarmandchilik sirlarini to'g'ri o'rgatish yo'llari aniqlandi va dars samaradorligi oshirildi.

Tadqiqot metodologiyasi: Davlatimiz konstitutsiyasi, Prezident asarlari, ta'lim dasturlari, pedagog olimlar ishlari, turli pedagogik va metodik adabiyotlar...

Ishning metodi: manbalarni o'rganish, tahlil qilish, so'rov o'tkazish, aniqlash,

Malakaviy bitiruv ishimiz rejalaridagi mavzularni o'rganish bilan kasb-hunar kollejlari va umum ta'lim maktablarida hunarmandchilikka o'rgatish mashg'ulotlarini tashkil qilish orqali yoshlarimizni kasb-hunarga yo'llashga uchraydigan muommolar, ularni hal qilishda ta'limda samaradorlik va kasbiy masalalarni ahamiyatini hamda hunarmandchilikka oid kasblarni fanlararo alaqadorlik asosida tashkil qilishga harakat qildi.

Ishning hajmi: Uch bob, sakkiz fasl, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar bilan 75 bet va ilovadan iborat.

I Bob. Kasb-hunar kollejlarda hunarmandchilik darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkel etish.

1.1 Kasb-hunar kollejlarda hunarmandchilik darslarini samaradorligini oshirish uchun fan o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi tufayli hayotimizning barcha jabhalarida turli ijtimoiy iqtisodiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jamiyatning munosib davomchilarini tayyorlash ishiga, ya'ni yosh avlodlarning shakllanishi jarayonini amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilishni talab etmoqda. "Davlatning buyuk kelajagi fuqarolarimizning ma'lumotlilikiga, madaniyatiga, bunyodkorlilikiga tayanadi. Zero, eski ta'lim-tarbiya asosiga yangi jamiyatni qurib bo'lmaydi". Ta'lim-tarbiya tizimini yangicha mazmuni asosida isloh qilishda o'qituvchining, tarbiyachining, murabbiyning ro'li beqiyosdir. (J.Yo'doshev. "Ta'limimiz istiqloli yo'lida "T.T." Sharq", 1996, 106-107-b.).

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining o'z sohasidagi savodxonligi etarli darajada bo'lsagina o'quvchi va talabalar bilan yonma-yon o'tirib o'zlari amaliy namuna ko'rsata oladilar. O'shandagina o'quvchilar va talabalar o'z ko'zlari bilan murabbiy rassomning egallagan mahorat sirlarini amaliy ishlarida ko'rib ruhan his qiladi hamda san'atning nozik sirlarini tushunib etishishiga imkoniyatlari kengayadi.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisi boshqa o'qituvchilar kabi umuminsoniy fazilatlarga ega. U axloqiy sifatlar shakllangan, ma'naviy ruhan boy, etuk inson bo'lishi bilan birgalikda yuqori darajada shakllangan kasbiy mahoratga ega bo'lgan mutaxassis-pedagog, psixolog bo'lmog'i lozim. "O'qituvchi tasviriy san'atdan maxsus bilim va malakalar bilan qurollanmasdan turib, muallimlik qilishi mumkin emas. Ayniqsa u tasviriy san'atning qalamtasvir, rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, shuningdek dekorativ-amaliy san'at va memorchilik san'ati tarixi, san'atdagi turli oqimlar maktablar uning rivojidadagi tamoyillarini puxta o'zlashtirib olishi, uning ayrim turlari bo'yicha badiiy ijod olib borishi va bu

bilan bolalarga namuna bo'lishi kerak". (R.Hasanov."Umumta'lim maktablarida tasviriy san'at ta'limi konsepsiyasini ".T.:O'zPFITI, 9-10-b.).

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisi shu turkimdagi maxsus tayyorgarlik texnologiyasini mukammal bilmog'i, mazkur sohaning tarixini, nazaryasini, metodologiyasini, amaliyotini yaxshi o'zlashtirgan yuqori darajadagi kasbiy mahoratga ega bo'lgan metodist bo'lmog'i ham lozimdir.

1) tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining badiiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda, o'quv tadbirlarini amalga oshirishda va hal etishda lozim bo'lgan vazifalari, muammolari tizimida;

2) tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining hozirgi zamon sharoitida kasbiy mahoratiga, mas'uliyatiga qo'yiladigan talablarni uning faoliyatida aks etishi ;

3) o'qituvchining o'z oldida turgan vazifalarini va muammolarini hal etishdagi va kasbiy siyomosida tasnif etilgan faoliyat turlarida ;

4) ta'limiy-tarbiyaviy muammolarni hal etishda tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisi foydalanadigan vositalar, uslublar va faoliyatni amalga oshirish yo'llari hamda ta'lim mazmunini tanlashda ;

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining ma'lum darajada bu sohada yaratilgan bilimlarni, ko'nikma va malakalarni bir davrdan ikkinchi davrga o'tkazuvchilik mas'uliyatini tavsiflaydigan quydagi yaqqol seziladigan ko'rsatgichlar ham mavjud:

-tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining zaruriy bilimlari hajmi ;

-o'qiyuvchining o'quv-tarbiyaviy mashg'ulotlarni, turli tadbirlarni amalga oshira olish ko'nikma va malakalari ko'lami ;

-tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining shaxsiy kasbiy fazilatlarini.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining vazifalari:

1) o'quvchilarni badiiy nafosat va ijodiy sifatlarini shakillantiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar;

2) aqliy, ijodiy, jamoatchilik muamolari ;

3) nazariy ta'limni amaliy, hayotiy , tabiiy faoliyat ,ijod bilan bog'lay olish ;

4) kasbiy faoliyatda ,badiiy ijodda o'quv va ijodiy mashg'lotlar birligini, uyg'unligini saqlay olish;

5) o'quvchilarni badiiy, axloqiy, nafosat tarbiyasida majmuaviy va tizimli yondashishni ta'minlash.

Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining kasbiy, pedagogik faoliyatini quyidagi qisimlardan tuzilgan deb faraz qilish mumkin :

a) tashkilotchilik - sinfda o'quv jarayonini, o'z madaniyatini, turli tadbirlarni yo'lga qo'ya olishi;

b) tuzuvchilik – kompozitsiyalar, loyihalar, qurilmalar, naqsh, badiiy tasvirlar , obrazlar va boshqalarni ko'rib, yasay olishi ;

v) axborot bera olish - ranglar, ularning xususiyatlari, tasviriy va amaliy san'at tarixi, taraqqiyoti, jarayonlar va boshqalar to'g'risida;

g) rivojlantiruvchi-bolalarning dastlabki tanishtirish bosqichidan boshlab, mohir rassom, haykaltarosh, me'mor va boshqalar bo'lib etishishigacha bo'lgan bilim, malaka, ko'nikmalarni takomillashib borishiga erishish;

d) kasbga yo'nalganlik;

e) kasbiy safarbarlik;

j) tadqiqodchilik-ijodkorlik;

z) maxsus kasbiy, o'ziga xos muammolar. Tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining yuksak mahoratli mutaxasis sifatida faoliyat ko'rsatishida quyidagi bilimlar zarur: g'oyaviy, mafkuraviy, axloqiy, psixologik, pedagogik, metodik, tabiiy-ilmiy, matematik, texnik-texnologik (maxsus), iqtisodiy, demografik, ekologik, huquqiy, nafosat, umummadaniy, axborotlar bilan munosabatda bo'la olish.

Ko'rinib turibdiki, kelajagimiz poydevori bo'lgan yosh avlodni kamol toptirishda, ayniqsa tasviriy va amaliy san'at o'qituvchisining serqirra faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi

1.2. Kollej o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda sharq olimlarining pedagogik qarashlaridan unumli foydalanish.

Yosh avlodga kasbiy ta'lim-tarbiya berish jarayonni mukammallashtirish uchun kasb-hunar pedagogikasining umum bashariy yutuqlari bilan birgalikda milliy pedagogikamizning yutuqlari, Markaziy Osiyo mutafakirlarining pedagogik qarashlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

“Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyatlar paydo bo'ldiki-degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov –biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog'imiz kerak” (I.A.Karimov: O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyilari, -T.: “O'zbekiston” ;1995. -9 b.) Shu ma'noda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda, ayniqsa milliy hunarmandchilik va zamonaviy industrial kasblarda o'ziga xis mehnat mazmuniga etibor qaratish talab etiladi. Buyuk ajdodlarimiz kasb-hunarli kishilarni hunarmand deb atashgan hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy holatini hunarmandchilik bilan bog'lagan. Chunki Markaziy Osiyonong qo'li gul ustalari yaratgan san'at durdonalari kishilarga zavq beradi. Zero har bir davr hunarmandchilik namunalarida insonlarning go'zallik tuyg'ularini tarbiyalaydigan o'sh davrning g'oyalari, maqsadlarida orzuvlari ifodalangan. Har bir hunarmand o'z huarini faqat o'ziga xos mehnat mazmunlari bilan boyitib, hunarini rivojlantirib kelgan. Shunda har bir usta o'z davrida hunarning mehnat mazmunida yangi qurollarini ijod qilib boyitgan. Shuning uchun buyuk ajdodlarimiz o'z asarlarida har bir hunarga xos fikrlarda ifodalaganlar. Ulardan biri bunday degan edi : “Ey inson agar dono bo'lay desang , hunarmand bo'lishni o'yla, hunarmandchilik sababidan izzat-hurmatga erishasan agar hunardan bebahra bo'lsang quruq soyasiz daraxtga o'xshab qolasan. Ey farzand aqlu farosatli va ilmu hunarli kishilar bilan do'st bo'l. Hunarsiz kishida xosiyat bo'lmaydi. Mehnatdan, ilmu hunar o'rganishdan uzoqlashma”. Axloqshunos olim Majid Havofiy hunarmandchilik to'g'risida bunday degan edi: Kasb va hunarmandlarni ezozla,

hunarmandchilikka ruju qo'ygan xalqning hurmat va e'tibori oshadi". Payg'ambar Dovut alayhissalom temirchilik, al-Farobiy bog'bonlik shoir Sakkokiy pichoqchilik shoir Zavqiy esa mahzido'zli bilan tirikchilik o'tkazgan. Bobomiz Xo'ja Baxoviddin Naqishband ham hunarmandchilik bilan shug'ullanib, Turkistonda birinchilikdan bo'lib odamlarni hunar o'rganishga va hunarmandchilik bilan shug'ullanishga chorlaganlar.

Bugun sharq mutafikirlarining kasbiy ta'lim-tarbiya usullariga qayta-qayta murojat qilishimiz zaruratga aylanmoqda. Sharq qomusiy olimlari pedogogika va kasbiy pedogogika muammolariga kasb talimi tarbiyasini maqsadlari, mazmuni shakli va usulariga doir e'tibor bilan qaratgan. Ular aqliy va jismoniy mehnat jarayonida shaxsning shakllanishiga qat'iy ishonganlar. Al-Kindiyning fanlar klassifikatsiyasida kasbiy talimda muntazamlikda davriylik etakchi bo'lishligi takidlanadi. Sharq mutafakkirlari xalqimiz manaviyati, oilada yoshlar tarbiyasining yaratuvchilik rolini chuqur his qilgan holda, ularning dono fikrlarini asarlari orqali ifodalaganlar.

A. Donish bilim va hunar egallamay, o'zining nasl – nasabi bilan maqtanib yuradigan yoshlarni qat'iy tanqid qiladi. Uning fikricha bunday yoshlar biror ijobiy fazilatga ega emas, ular hosil bermaydigan mevali daraxtga o'xshaydi, undaylarning jamiyatga foydasi tegmaydi, aksincha zararli ta'sir ko'rsatadilar.

Boshqa buyuk sharq mutafakkirlari mehnat va kasb to'g'risidagi fikrlarini quyidagicha ifodalaydi:

A. Navoiy: "Umrni zoya etma mehnat qil mehnatning saodatini kalitini bil."

X. Dehlaviy: "Ba'zi kun yoshlar safida bo'za ammo, ish tadbirini keksadan izla."

Al-Beruniy: "Har shirin jon qilsa harakat, harakatga qarab topar barakat."

X. Dehlaviy: "O'ylasang hayotning salohiyatining, harakatga o'ydagi mehnatning ham mohiyatini."

X. Dehlaviy: "Ishni ko'rib ko'plar shimranadi, ko'proq bajarganini eng yaxshi deng."

Shunga o'xshash misralarni sharq mutafakkirlari asalarida juda ko'plab topishimiz mumkin.

Katta avlodlarga o'zlarida kasb-hunar yuzasidan to'plagan bilimlarini o'rgatib borgan taqdirdagina shu jamiyatda rivojlanish bo'lishi mumkin. Shunday ekan, mustaqil Respublikamizda tarkib topayotgan demokratik asosdagi jamiyatni rivojlantirish yangi avlodga kasb hunar yuzasidan tajribalarni egallab olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratmoq lozim. Kattalar kasb-hunar tajribalarini egallab olgan yosh avlod, uni tajribalar, kashfiyotlar va ixtirolar bilan kengaytiradi, boyitadi, rivojlantiradi va takomillashtiradi. Shu tufayli kasb hunardan tajribalar to'planib boradi, bilimlar ko'nikmalar tizimlari hosil bo'ladi. Bir avlodning boshqa bir avlodga kasbiy mehnat tajribalarini o'rgatishi kasb hunar tarbiyasi jarayonida sodir bo'ladi. Keng ma'nodagi kasb-hunar tarbiyasi deganda, biz insonning muayyan bir ijtimoiy-iqtisodiy mehnat funksiyalarini bajarishga tayyorlash uchun unga aniq bir maqsadga qaratilgan va tizimli holda ta'sir ko'rsatishini tushunamiz. Yangi avlodlar mehnat tarbiyasi vositasida ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy hayotning turli sohalarida qatnashishga tayyorlanadilar. Fan, texnika, texnologiya, madaniyat, ishlab chiqarish, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy munosabatlarning uzviy holatda rivojlanib borishiga qarab kishilarning tajribasi ham ortib xilma-xil bo'lib borgan. Bu esa ana shu tajribani yosh avlodga o'rgatishni qiyinlashtiradi.

Sharq allomalari, donishmandlari hayotni boshqarishda, ayniqsa tarbiya sohasida juda ajoyib foydali maslahatlar berganlar. Ular inson bu hayotda "Men baxtiyorman" deb o'tishi uchun o'zining qobiliyati va imkoniyatiga qarab, sevgan kasbini to'g'ri tanlashi kerak ekanligini o'z asarlarida ta'kidlaganlar.

Tajribalardan malumki yaxshi kasb –hunar tarbiyasini olmagan o'quvchi bilan ishlash ancha muammolarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Buning asosiy ildizi oiladagi "ota- kasb" va "Ustoz-shogird" kabi ijobiy muhit yaratilishi ota bilan onaning hamkorligining mavjudligidan kelib chiqadi.

Shu o'rinda A. Rudakiyning: "Har kimki hayotdan olmasa ta'lim, unga o'rgata olmas hech bir muallim", degan misralarini keltirish mumkin.

Shunday ekan biz har birimiz hayotdan ta'lim olib kelajagimiz bo'lgan yosh avlodlarni mustaqil davlatimizning ishonchli a'zolari qilib tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Inson, har bir hunarning mohiyatini, yaxshi va yomon sifatlarini bilganidagina unga oid bilimlarni mukammal egallashi, hunarmandlar ahlini qo'llab-quvvatlashi mumkin.

Darhaqiqat, sharq, mutafakkir allomalari, buyuk ma'rifatparvar olimlar Abu Rayhon Beruniy, Muhammad Xorazmiy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulugbek, Sufiy, Ahmad Donish, Abu Nasr Forobiy, Muslixiddin Sa'diy SHeroziy, Alisher Navoiy kabilarning yozib qoldirgan durdona asarlari insonning axloqiy kamolotini ijodiy anglashda ilhombaxsh va tugalmas manba bo'ladi. Ular o'z asarlarida yosh avlodga vatanparvarlik mehnatsevarlik, do'stlikka sadoqat, sofdillik, haqiqatgo'ylik, mardlik va jasoratlilik kabi fazilatlarni tarbiyalash zarurligini qayd qiladilar, ularga toshbag'irlik, yovuzlik, tekinxurlik, yalqovlik, baxillik kabi yaramas odatlar ta'sir ko'rsatishining oldini olish kerakligini uqtiradilar.

Buyuk mutafakkirlar insonni sevishga, qadrlashga. unga diqqat - e'tibor bilan qarashga va rahmdil bo'lishga chaqiradilar. Shu tariqa o'tgan asr ma'rifatparvarlari xulq va xatti-harakat qoidalarini, shaxsning ma'naviy hamda jismoniy kamoli uchun nixoyatda muhim bo'lgan xalq an'analari va urf-odatlarining mohiyati hamda axamiyatini saqlashga, maqsadga muvofiq ravishda ijodiy anglashga va kishilar ongiga singdirishga harakat qildilar. O'rta Sharq hamda O'rta Osiyo xalqlarining taxminan eramizdan oldingi V asrdan VI asrga qadar tuzilgan muqaddas kitobi "Avesto" da ham bolalar kamolotiga, mexnatning va kasb-hunarning ahamiyati tug'risidagi materiallarni ko'rishimiz mumkin. Chunonchi, taqvodor chorvador "O'z turish-turmushida odil, oqil va xurmatga sazovor bo'lsa" katta podaga erishadi va shogirdlar etishtiradi. "Qodir Xudo"... "Kimki yaxshi niyat yo'lida chorvador jamoasida bulsa, shunigina mex,nati uchun ardoqlaydi".(YAsna 34,14-bob)-deyiladi.

Shuning uchun ham Axura mazdaning faoliyatida uy-joy kurishga, sot-ulov, chorva, xotin va bola- chaqalarga ega bulishga, ekin va dov-daraxt ekishga, yerlarni unumdor kilish va sugorishga, mayda va yirik mollarni boqish cha xokazolarga da'vat etish uz ifodasini topganligi diqqatga sazovordir. Abu Abdullox Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (783-850) ning insoniylik va mehnatsevarlik haqidagi dono fikirlari hozirgi kunda o'z ahamiyatini yo'qatmagan. Mutafakkurning fikricha har bir kishi qilgan ishlari bilan hech ham mag'rurlanmasligi va takabburlik qilmasligi lozimligini ta'kidlab o'tgan.

X asrdagi Sharq ijgimoiy tarbiyashunoslik bo'yicha fikrlarning eng yirik vakili Abunahr Al-Forobiy (870-950) ning fikrlarida kasb-hunar va axloqiy fazilatlar muayyan harakatlarni takrorlash, mashq qilish yo'li bilan paydo bo'lishini uqtiradi. Mutafakkir "Axloqiy fazilatlar va razilliklar, axloqiy harakatlarni, ishlarning bir necha marta takrorlanishida va uzoq davom etishi jarayonida vujudga keladi va mustahkamlanadi. Agar qilinayotgan ish xayrli bo'lsa, unda fazilat kelib chiqadi, agar yomon bulsa, unda razillik keqib chiqadi" -deydi.

Forobiy kasb-hunar ahlining ahloqiy fazilatlar haqida mulohaza yuritar ekan, "Kasb- hunar egallash va kamolotga erishishga uz ixtiyoriga havas bilan intilgan kishilar haqiqiy fazilat egalari va haqiqiy san'at ahlidir", "Ular amaliy ish bilan shurullanuvchi, kasb-hunarga» berilgan kishilardir" deydi.

Forobiyning ana shu ilgor g'oyalar davomchisi Abu Rayxon Beruniy (978-1048) mamlakatning obodonchiligi, kishilarning baxt-saodati va kamolotini uning halol mehnat kilishida va kasb- hunar o'rganishida deb biladi.

Beruniyning "Mineralogiya" asarida keltirilgan bir hikoyaning bayoni quyidagicha: "Marvaridning bahosini kim yaxshi bilsa, u kishi uni teshish va silliqdash ishlari bilan uzi shug'ullanmay, bahosini bilmaydigan shogirdlariga topshirgi. Bunda shogirdparining qo'llari qaltiramay, qo'rqmay ishlaydilar. Agar bu ish xavfsirash, qurqish bilin bajariladgan bo'lsa, marvaridlar sinib, parchalanib isrof bo'lishi mumkin. Ba'zan usta shogirdlarga shapaloq-tarsaki tushirib turadi, sababi ularni xavfsirash o'ylaridan halos etib turib dir"-deyilgan.

Mutafakkir ijtimoiy mehnatda, hunarmandchilik sirlarini, ayniqsa, qizlar uchun zeb-ziynat yasashda xotin-qizlarning ishtirokini, ularning bu san'atdagi qobiliyatlarini e'zozlab ajoyib fikrlar aytgan. Xotin-qizlar mehnat qilishlari shart. Bu ularying xulqi va ruxiga yaxshi ta'sir etadi" -deydi.

Xususan mutafakkir o'z bolalarini jismoniy mehnatga kasb-hunarga o'rgatmaydigan zodagon oilalar va boy feodallarni qattiq tanqid qiladi.

Kim uchsasa'iy-jaxdu qilmay shuhratga

Karam lobosiga ko'zi bo'lsa och

G'aflat soyasida shod bo'lur ammo,

SHaraf kiyimisiz qolar yalang'och.

Demak, buyuk allomaning fikricha mehnatsiz vaqtinchalik qaram libosiga ega bo'lish mumkindir, biroq mehnat va kasb-xunar bilan inson xech vaqt g'aflatda qolmaydi, balki shon-sharaf va shavkatli odam bo'lib ulg'ayadi degan xulosa chiqaradi.

Xullas, Abu Rayxon Beruniy insonning xalol mehnat qilishi va kasb-xunarga ega bulishi tufayli aql-zakovati, qobiliyati, qudrati oshib borishiga ishonadi. Bu bilan u mehnatsevarlik, o'z kasbini aniqlashdek fazilatlarni g'oyat qadrlaydi.

Mexnatni sharaflash, mehnat axlining qadr- qimmatini, uning manfaati uchun astoydil ko'rashni qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037)ning ilmiy faoliyatida xam ko'rishimiz mumkin.

Ibn Sino "Odam ijtimoiy jondir" degan fikrni oldinga surgan. Shuning uchun xam olim odamning yashashi uchun eng zarur narsa foydali mehnat ekanligini, mehnatsiz hayot kechirish kishini yomon oqibatlariga olib kelishini tushuntirib otanalarining,» o'z bolalariga yoshligidan boshlab mehnat tarbiyasini berish zarur deb xisoblaydi. Mutafakkir bu ishning bolalar uchun ikki xil tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi.

1.Bola o'z kasb-hunari tufayli mustaqil turmush kechirib, uning dastlabki manfaatini qurgandan keyin o'z kasb-xunariga yanada mahkam bog'lanib unga nisbatan muxabbat orttiradi va uni takomillashtirishga intiladi.

2. Yashash takomili o'z zimmasiga yuklatilgandan keyin o'z kasb-xunariga odat hosil qiladi.

Ibn Sino o'z davrida yoshlarni xunarli bo'lishga chorlagan. Uning durdona nasixatlari hozirgi kunda ham o'zining ma'rifiy, tarbiyaviy ahamiyatini yuqotgani yo'q.

Oltin olmaginu o'rgangin hunar

Hunarning oldida xasdir oltin-zar.

Bu davrda ilmiy tafakkur sohasida uchmas iz qoldirganlardan biri Rudakiydir (884-954),

Rudakiy kishiga eng birinchi xayotning saboqlarini beruvchi muallim ekanligini ta'kidlab, ammo agar kishi xayotning uzi bergan ugitlarini yodlab olmasa, uni xech kim xech narsaga o'rgata olmasligini kursatadi. , '

Xayot saboqlari etolmasa yod

Uni o'rgatolmas xech qanday ustod.

Rudakiyning ta'kidlashicha, har bir kishi o'zining shunday fazilatlarini hosil qilish uchun qurqmasligi va xayot mushkullarini daf qilish uchun esa kasb-xunar o'rganishi va foydali mexnat bilan shugullanishi kerakligini aytadi.

O'rta Osiyo xalqlarining iftixori, ko'plab shoirlarning ustoz bo'lgan Abulqosim Firdavsiy (934-1020) ning oltmish ming baytni o'z ichiga olgan "SHoxnoma" asarida xam xalqlarning orzu-istaklari, Vatan daxlsizligi mamlakat osoyishtaligi va obodonchiligi uchun ko'rash tarannum etiladi. Shuningdek asarda yaxshilik va yomonlik, ezgulik va razillik o'rtasidagi ko'rash asosiy urinni egallaydi.

Shoir dunyodagi hamma boylikni yaratgan, gullarni guliston, biyobonlarni buston qilgan mexnatni ulug'lab, xar bir xazina mexnat mas'uli ekanini qayta-qayta ta'kidlaydi:

Mexnat tagidadir, ey oqil, xar ganj, Ganj topmas xech kimsa tortmas ersa ranj Firdavsiyning fikricha, kasb-xunar axli uchun xudbinlik va o'ziga bino qo'yish mutlaqo yot narsadir. Shu boisdan xam shoir kishilarga: *Hunaringga bo'lma ko'p mazrur, Oyog'ingda mustaxkamrots tur* deb, nasixat qiladi.

O'z davrining dono murabbiy shoiri va ulug' ruxshunosi Sa'diy Sheroziy (1184-1292) ilmu- hunarni hamma narsadan yuqori qo'yadi va ilmu-hunar

o'rganish yo'lida har qancha mashaqqatdan qochmaslik lozimligini qayta ta'kidlaydi:

Bo'lsa bir hunaring, hamda yuz aybing, Do'st nazdida hunar yopar yuz aybing. Istar esang otangdan meros, Bog'la otang ilmiga ixlos. kabi misralar bilan kishilarda ilm-hunarga mexr- muxabbat uyg'otadi.

Sharq, madaniyatining buyuk namoyondasi Mirzo Ulug'bek o'z ijodida yosh avlodning tarbiyasini ularga tabiat tug'risidagi bilimlarni berish bilan birga amalga oshirish kerakligi, shundagina kishilar muvafaqqiyatli mexnat qila olishini bayon qiladi. Shuningdek yoshlar bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishlari, o'z fikr-mulohazalarining to'g'riligiga bevosita kuzatish orqali ishonch hosil qilishlari muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

XIV-XV asrning mashhur olim va shoirlaridan Avxodiddin Avxodiy Majid Xavofiy, Voiz Koshifiy, Jamoliddin Davoniylar ham insonning kamolotida va yuksak fazilatli bo'lishida mexnat hamda kasb-hunarning rolini aloxida ta'kidlaydi. Mutafakkirlar mazlum xalqning mexnatini ulug'laydilar, inson faqat o'zining xalol mehnati, jamiyatga keltirgan foydasi tufayli e'zozlanishini qayd etganlar.

O'zbek xalqining ulug' shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy (1441-1501) mexnat axlini aloxida mexr-muxabbat bilan madx etgan.

Navoiyning fikricha, inson barkamollikka faqat mexnat bilan erishishi mumkinligini aytadi: *Mexnat arodur murod topmoq bilgil, Mexnat arodur kushod topmoq, bilgil.* Alisher Navoiy mehnatsevarlikni chinakam insonning eng asosiy xususiyati deb bilgan. Mehnat kishini bezashini, uni har tomonlama kamol toptirishini yuksak nafas bilan madx etgan. Xususan, "Farxod va Shirin" dostonida mehnat hayot va baxt manbai ekanini obrazli qilib g'oyatda yorqin ifodalagan. Yoshlarni sidqidildan mehnat qilishga chaqirgan va mehnat tarbiyasi haqidagi g'oyalarni rivojlanishiga salmoqli ta'sir ko'rsatgan. Bu dostonni yozishga kirishishdan oldin Navoiy Farxod va Shirin haqida yozma va og'zaki adabiyotda, tarixiy ma'lumotlar bilan tanishib, Farxod timsolida hunarga, mexnatga butun

vujudi bilan berilgan, o'rta asrlarda og'ir mexnat orqasida qo'llari ezilgan bir sharoitda odamlarning mexnatini yengillashtiradigan ish qurollari kashf etishni orzu qilgan va bunga erishgan buyuk insonparvar qaxramon obrazini, bugina emas, o'qish, o'rganish, kuchli intilish, mislsiz jasorat tufayli yuksak aqliy kamolotga, yuksak insoniy fazilatlarga erishgan baxodir jangchi va matonatli, vafodor oshiq obrazini yaratishni maqsad qilib qo'ydi.

Shirin siyomosida esa u go'zal va oqila, samimiy va vafodor ayol obrazini namoyon etdi. A. Navoiy bu bilan birinchi bo'lib mehnat kishisini adabiyotga olib kirdi, hamda uni bosh qaxramon sifatida yuksak badiiylik bilan tasvirlay oldi.

XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida yashab o'tgan O'rta Osiyolik ma'rifatparvarlar A. Donish, Sufiy, Mutrib va boshqalar mexnat tarbiyasi haqidagi fikrlarida umuman yoshlar bekorchilikka berilmay, kasb-hunar o'rganishga xarakat qilishlari, har kim o'zi qiziqqan va o'ziga munosib mexnat faoliyati bilan shug'ullanishi kerakligini ta'kidlab o'tishgan. Bundan "Mehnatdan qochgan kishi roxat-farog'atda yashay olmaydi va mehnatkash odam xech kimga qaram bo'lib qolmaydi" degan xulosa chiqadi.

Sixatimiz, sabrimiz, fazilatimiz alxosil butun hayotimiz harakatimizga borliqdir. Harakatsiz kishilar har narsadan, doim boshqalarning yordamiga muxtoj bo'lib xorlikda kelurlar", deb aytadilar.

Shuning uchun bolalarni hunar o'rganishga chaqirib, kishilarni biror kasb bilan shug'ullanishga undab, bu ko'mirchilik, bu temirchilik menga munosib ish emas deb dangasalik qilib, ishsiz yursa zur ayb, gayratsizlikdur" deydi.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarga tayanib, tula asos bilan aytish mumkinki, yosh avlodni tarbiyalash, yangi sharoitlardagi hayotga va mehnatga tayyorlashning taraqqiyparvar ilmiy xususiyatini tadbiq etish, shuningdek o'quvchilar shaxsini shakllantirishda xalqning mehnat an'analari, urf-odatlar va mutafakkirlarimizning meroslaridan foydalanish muhim vazifalardan biridir.

1.3. Kasb-hunar kollejlarda ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, hunarmandchilik sirlarini o'rgatishni takomillashtirish.

«Ta'lim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» respublikada uzluksiz ta'limni joriy etish va isloh qilishning ilmiy nazariy asosi ekanligi ko'p yillardan beri o'rganilib kelinmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy modeli va ta'lim muassasalarining vazifalari to'g'risida ham davlat ta'lim standartlari tayyorlandi va amaliyotga joriy etildi.

Ta'lim - tarbiya jarayoni va amaliy san'at darslariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqildi. Mazkur ishlar bilan pedagogika fanlar ilmiy-tadqiqot instituti va RUMM ishtirokida tuzilgan markaz shug'ullanadi. Bu markazda o'zbek xalq amaliy san'ati o'quv fanining mazmuni va soatlar hajmining xilma-xilligi, sinfdagi o'rta, yaxshi va yomon o'zlashtiruvchi talabalar uchun mo'ljallangan dasturlar, metodik qo'llanma, tavsiyanoma va boshqa materiallar ishlab chiqiladi.

Amaliy san'at darslarida zamonaviy texnologiyaning tarixiy taraqqiyoti to'g'risida gap borganda avvalo 1970 – yillarda kirib kelgan yangi pedagogik texnologiyani misol qilib ko'rsatish mumkin. Tarixiy manbalarda yozilishicha maktablarda dars olib borish texnik vositalar yordamida olib borilgani birinchi o'qitishning texnologiyalari xisoblanar ekan. Maktabda faoliyat ko'rsatayotgan o'qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyaning O'zbekistonga kirib kelishi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak. Shuningdek, tasviriy va amaliy san'at o'qituvchilari ham ilg'or tajribalarni o'rganish, aniqlash va ommalashtirishlarni bir qancha o'qituvchilar faoliyatida ko'rishimiz mumkin.

Tasviriy san'atda o'quv jarayonini texnologiyalashtirish haqida gaplashilganda avvalo pedagogik texnologiyalarning o'qitish usullariga bog'langanini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Pedagogik texnologiyani tashkil etish tarkibiy bo'laklarini tashkil etuvchi tushuncha modul bo'ladi. Bu tarkibiy bo'laklari, yangi modullar, kichik bo'laklardan iborat bo'ladi.

Kompyuter va axborot texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlari va metodlari haqida ma'lumotlarni o'zlashtirishlari bilan belgilanadi. Amaliy san'at darslarida kompyuterdan foydalanish o'qitish texnologiyasidan foydalanish yo'llarini o'rganish bilan hamkorlikda o'qitish texnologiyasi foydali va ko'proq narsalarni o'rgatadi. Amaliy san'at o'qituvchisining tayyorgarligi bilan bu masallar bog'liq o'zlashtiriladi. O'quvchining bilish faoliyatini tashkil etish ham shunga hizmat qiladi. Amaliy san'at darslarida didaktik o'yin texnologiyasidan foydalanish. Chunki ta'lim va tarbiyaning mohiyatini quyidagi didaktik sistemasidagi prinsiplar ochib beradi. Ta'lim-tarbiyada o'quvchi yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda mutaxassislik maqsadga intilish, yosh avlodni mustaqillik ta'limotlari ko'rsatmalari asosida har tomonlama ma'lumotlar oladilar

Tasviriy san'at va chizmachilik o'qitishning zamonaviy texnologiyalari fanining maqsad va vazifalari. Mazkur fanning maqsadi tasviriy san'atdan maxsus fanlarni o'qitish jarayonini texnologik yondoshuv asosida qurish va yakuniy natijani kafolatlash qonuniyatlarini umumdidaktik pedagogik texnologiyalar darajasida talabalarga o'rgatishdan iboratdir. «Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lim samarasi past bo'lishi muqarrar»,- degan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. Haqiqatdan ham kelajak yoshlarning qanchalik bilim olishiga, erkin fikrlay olishiga, ko'rgan, eshitganlarini tahlil qilib qiyosiy o'rgana olishi bilan bog'langandir.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati haqida tushunchalar berish, muzkur pedagogik texnologiyalarni nazariy asoslari bilan tanishtirish, tasviriy san'at va muxandistlik grafikasi asoslarini egallashda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashning shart-sharoitlari haqida tasavvur hosil qilish, umumiy o'rta ta'lim maktablarining tasviriy san'at va chizmachilik mashg'ulotlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashning turlari va mazmuni bilan tanishtirish, umumiy o'rta ta'lim maktablarida bu texnologiyalarni qo'llashning o'ziga xos jihatlarni ochib berish.

-metodika va metodologiya tushunchalarini, o'qitish jarayoni va tadqiqot usullarining nazariy asoslarini, o'qitishning didaktik tamoyillarini, muxandistlik grafikasi o'qitishning metodlarini, mashg'ulot turlari (ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar va boshqalar) ni o'tkazish va nazorat qilishning faol shakllarini, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'qitishning muammoli va dasturlashtirilgan usullarini, yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini, muxandistlik grafikasi kursining boshqa fanlar bilan bog'liqligini, o'quvchilarning fazoviy tasovvklarini rivojlantirish, o'quvchilarning grafik bilimi, ko'nikma va malakalarini baholish, nazorat qilishni, tasviriy san'at va chizmachilik bo'yicha to'garak ishlari, olimpiadalar tashkil etish, o'tkazish, o'qitish sifati va kadrlarni kasbiy tayyorgarligiga ta'sir etuvchi faktorlarni, pedagogik muloqqat asoslarini, ilmiy tadqiqot ishining asosiy tushunchalari va metodlarini bilishi kerak.

-tasviriy san'at va muxandistlik grafikasi bo'yicha o'quv ishlarini tashkil etish, ma'ruza matnlarini tuzish, tasviriy san'at va chizmachilik xonasini jihozlash va texnik vositalarni qo'llash, sinf doskasida ishlash, iqtidorli va iste'dodli o'quvchilarni tanlash va ular bilan pedagogik ishlarni tashkil qilish, grafik topshiriqlar, tarqatma kartochkalar, modellar, qo'rgazimali plakatlar kabi o'qitish vositalari ishlab chiqish, yangi pedagogik texnologiyalar, ularni tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini o'qitishda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lish kerak.

- zamonaviy fan yutuqlarini amaliyotga tadbiiq eta olish, muammoni echishga ijodiy yondoshish, mutaxassislikning ilmiy muammolarini esishda qarorlar qabul qilish va undan ish faoliyatida foydalana olish, ilmiy tadqiqot natijalaridan foydalanish bo'yicha amaliy tavsiyalar va hisobotlar tuzish, tasviriy san'at va chizmachilik fanlari bo'yicha o'qitish vositalari, o'qitishning interaktiv metodlari, pedagogik texnologiyalari, tizimli va muloqqatli yondoshkv kabi etakchi tamoyillar asosida o'quv ishlarini tashkil etish va o'tkazish malakalariga ega bo'lish.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning mohiyati va metodika haqida ma'lumotlar. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim va tarbiya jarayonini faollashtiruvchi o'qitish usullarining majmuasidir. Metodika deganda ta'lim va tarbiyani maqsadga mos amalga oshirishning turli samarali yo'l va usullar yig'indisini tushunamiz.

Metodika pedagogikada ikki turga bo'linadi ya'ni, umumiy metodika va xususiy metodikaga.

Umumiy metodika o'qitishda olib boriladigan barcha ta'lim-tarbiya ishlariga aloqadordir. Shuning uchun ham u o'qitish va tarbiya jarayonida doimo qatnashadi.

Xususiy metodika esa u yoki bu o'quv fanigagina aloqador bo'lgan o'qitish uslublaridir.

Metodika, ko'pincha pedagogika, psixologiya va san'atshunoslik sohasiga oid nazariy xulosalarga tayanib ish olib boradi.

Metodning o'zi – grekchada yo'l, axloq usuli ma'nolarini bildiradi.

II BOB. Kasb-hunar kolleji talabalariga hunarmandchilik sirlarini o'rgatishda milliy qadriyatlarimizni tutgan o'rni.

2.1. Qadriyatlarimizni saqlash uchun mamlakatimizda olib borilayotgan chora tadbirlar va ularni o'quvchilar ongiga singdirish

O'zbekiston xalqlarining tarixi, qadriyatlari, ilm-fan, madaniyat durdonalarini har tomonlama o'rganish va tahlil etish g'oyat muhimdir. Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki,- degan edi Prezidentimiz I.A.Karimov: "Biz bosib o'tgan yo'limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimizni negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz tomirlariga qaytib, o'tmishdagi boy an'analarni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog'imiz kerak" (6. 9,b). Shu maqsadda Respublikamiz hukumatining qator hujjatlari Vatanimizning asosli rivojlanishiga qaratilmoqda. Jumladan, yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, milliy san'at namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jahonga mashhur bo'lgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda. Shu ma'noda Respublikamiz hukumati tomonidan xalq ta'limi tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 1997 yili "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur" qabul qilindi. Unda "O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasidagi siyosatini, umuminsoniy qadriyatlar, xalqning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan borasidagi ko'p asrlik an'analarni, jamiyatning istiqboldagi rivojlanishini hisobga olgan holda yurgiziladi" deyilgan.

Mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyadagi ma'ruzasida O'zbekistonning kelgusi asrga nimalarni olib o'tishi va nimalardan voz kechishi lozimligi haqida gapira turib, hayotimizning yaxshilash yo'llari, yangi ming yillikda qanday muammolarning echimiga diqqat qilishimiz lozim? - degan masalalarga echim topishga intiladi va buning uchun Respublika hayotiga, o'tmishiga nazar tashlab tahlil qiladi.

Yurtboshimiz XXI asrning dastlabki yillarida mamlakatimiz rivojlanish strategiyasi, islohotlarni chuqurlashtirish va jamiyatni yangilash borasidagi faoliyatimizning mazmun - mohiyatini, ustuvor 6 ta yo'nalishlardan iboratligini ta'kidlaydi.

Shu ustuvor yo'nalishlaridan biri kadrlar masalasidir. Har bir vazifani oxiri baribir kadrlar va yana kadrlarga borib taqalaveradi, mubolag'asiz aytish mumkinki, bizning kelajagimiz, mamlakatimiz kelajagi ya'ni o'rnimizga kim kelishiga yoki qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati qadimiyligi va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. Mamlakatimizning er usti va tuproq ostidagi qismi ulkan bir tarixiy muzeydir. Asrlar davomida orttirilgan madaniy va ma'naviy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy bezak san'atining eng rivojlangan turlaridan: ganchkorlik, naqqoshlik, zargarlik, kashtachilik, yog'och, tosh va suyak o'ymakorligi, kulolchilik, pichoqchilik, kigiz bosish, savatchilik, bo'yrachilik kabilarni o'rgatish, o'rganish texnologiyasi, ustalarning xaqiqiy nomlari, o'ziga xos maktablari, yaratgan uslublari sho'ro tuzumi davrida asta-sekin yo'qolib ketish xavfi ostida qoldi.

Bizning qadimiy va go'zal diyorumiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zaminda ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar etishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga etgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Bu ko'hna tuproqda milodgacha bo'lgan davrda va undan keyin qurilgan murakkab suv inshootlari, hali-hanuz o'zining ko'rki tarovatini saqlab kelayotgan memorchilik inshootlari qadim-qadimdan o'lkamizda dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatini belgilaydi. Me'morlik va shaharsozlik san'ati

yuksak darajada rivojlanganidan dalolat beradi. Mamlakatimiz hududida mavjud bo'lgan to'rt mingdan ziyod moddiy-ma'naviy obida umumjahon merosining noyob namunasi sifatida YUNESKO ro'yxatiga kiritilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimiy toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, materialogiya, kimyo, astronomiya, me'morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kamdan-kam topiladi.

Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plangan hayotiy tajribasi, diniy, axloqiy, ilmiy adabiy qarashlarni ifoda etadigan bu kabi tarixiy yodgorliklar orasida bundan qariyb uch ming yil muqaddam Xorazm vohasi hududida yaratilgan. "Avesto" deb atalgan bebaho ma'naviy obida alohida o'rin tutadi. Avvalambor, shuni aytish joizki, olis ota-bobolarimizning aql-zakovati, qalb qo'ri mahsuli bo'lmish bu noyob yodgorliklarning zamon to'fonlaridan, qanchadan-qancha og'ir sinovlardan o'tib, bizning davrimizgacha etib kelganining o'zida katta ma'no mujassam. Bunday o'lmas osori atiqalar bu ko'hna o'lkada, bugun biz yashab turgan tuproqda qadimdan buyuk madaniyat mavjud bo'lganidan guvohlik beradi.

Ana shunday tarixiy yodgorlik namunalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, ularda ifoda etilgan teran fikr va g'oyalar, hayot falsafasi bizni bugun ham hayratda qoldirishiga yana bir karra amin bo'lamiz.

Bugungi kunda mustaqil mamalakatimizda xalqimizning asrlar davomida yaratgan ijodiy mehnati natijasi bo'lmish amaliy bezak san'atini ko'z qorachig'idek asrash, qadrlash, ulardan amaliy foydalanish, yoshlar estetik didini o'stirish hamda yuksak madaniyatli kishilar qilib tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar ochildi. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy,

Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi jahonga mashxur olim, shoir va musavvirlarning betakror madaniyat durdonalari, xalq ustalari yaratgan nodir asarlar ruhida yoshlarni tarbiyalash, ustachilik va hunarmandchilik sirlarini ularga me'ros qoldirishga chaqirganlar.

Bunday boy madaniyatimizni saqlash va revojlantirish uchun mamlakatimizda bir qator tadbirlar o'tkazilmoqda/

Jumladan Toshkentda SHanxay xamkorlik tashkiloti davlatlarining **“Baxt kamalagi”** ko'rgazmasi mamlakatimizda milliy qadriyatlarimizni saqlash uchun olib borilayotgan chora tadbirlarni bir ko'rinishidir.



Bundan tashqari viloyat va shaharlar o'rtasida va Respublika miqiyosida o'tkazilayotgan badiiy kechalar va turli xildagi ko'rgazmalar muqaddas qadriyatlarimizni saqlash va urf-odatlarimizni rivojlantirish uchun amalga oshirilmoqda

O'zbekiston Badiiy Akademiyasi SHXT davlatlari o'rtasida xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlash borasida talaygina ishlar qildi. Chunki bu davlatlar qadimiy Buyuk Ipak Yo'li chorraxasida vujudga kelgan. Jumladan, uzoq o'tmishda Xitoy va O'zbek xalqi o'rtasida nafaqat ijtimoiy, balki san'at soxasida ham yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatilgan. Amir Temur davrida Xitoyning "kobalt" chinnisiga qizikish natijasida XIV-XV asrda O'rta Osiyoda oq-zangori keramika vujudga keldi. Amir Temurning avlodlari ham Xitoy chinnisiga "katta qiziqish bilan qarashgan.

2006 yil 28 aprelda Toshkentda O'zBA Markaziy kurgazmalar zalida "Baxor kamalagi" rangtasvir va amaliy bezak san'ati asarlari ko'rgazmasi ochilishi marosimi bo'ldi. U Shanxay xamkorlik tashkiloti davlatlari - Qozogiston Respublikasi hamda O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirlarining navbatdagi uchrashuvi paytiga belgilangan edi. O'zBA, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va Sport ishlari vazirligi, "O'zbekiston madaniyati va san'ati Forumi" jamgarmasi uning tashkilotchisi bo'lishdi.

Bugungi kunda Shanxay hamkorlik tashkiloti o'z tarixi, strategiyasi, istikboliga ega. U bir qator muhim tadbirlar o'tkazdi. Bu tadbirlar davlatlarimiz o'zaro hamkorlik aloqalarida muhim o'rin tutadi. Tashkilotning badiiy madaniyat yo'nalishidagi tadbirlari ayniqsa e'tiborli. Chunki xozirgi paytda davlatlar o'rtasidagi ham ko'p tomonlama, xam ikki tomonlama madaniy aloqalar zamonaviy san'at tarakkiyotida muhim rol o'ynaydi.

Davlatlarimiz o'rtasida siyosiy-tarixiy, ijtimoiy-iktisodiy o'ziga xosliklar bo'lishiga qaramasdan, bizni juda ko'p narsa, jumladan, badiiy madaniyat soxasi birlashtirib turadi. SHXT davlatlari uchun globallashish davrida milliy o'ziga xoslikni saqlab qolish, kelgusi avlodlarga tarixiy-madaniy merosni etkazish, jaxon madaniy makoniga teng xuquqli kirib borish muhim ahamiyatga ega. SHXTga

kirgan har bir davlat xalqlari jahon madaniyati o'zbek xalqi xayoti va madaniyati haqida hikoya qiluvchi foto ko'rgazma esa 2005 yilda Xitoyda o'tkazildi. Mazkur ko'rgazma tomoshabinlarda katta taassurot uyg'otdi, ommaviy-axborot vositalarida keng yoritildi.

Xitoy xalq Respublikasida 2005 yil mayda o'tkazilgan O'zbekiston madaniyati kunlari doirasida namoyish etilgan O'zbekiston rangtasvir va zamonaviy foto san'ati kurgazmasi ham katta qiziqish o'yg'otdi. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tomonidan Xitoy Milliy muzeyi (Pekin shaxri)da rangtasvir asarlari ko'rgazmasi tashkil etiddi. Unda 40 nafar etakchi O'zbek rassomining zamonaviy san'at asosiy yo'nalish va oqimlarini aks ettiruvchi rangtasvir asarlari namoyish qilindi. Shanxay shaxridagi zamonaviy shaxarsozlik markazida O'zbekistondagi buddaviylik yodgorliklariga bag'ishlangan foto ko'rgazma o'tkazildi. Bu ham Xitoylik tomoshabinlar, arxeologlar, tarixchilarda katta qiziqish uyg'otdi.

Va nihoyat, yanvarda O'zbekiston Badiiy Akademiyasi Respublika dizayn kollejida turt davlatda bo'lib utgan "Bolalar ertak chizadilar" ko'rgazmasi ochildi.

Ushbu ajoyib kurgazmada SHXT davlatlari bolalarining ishlari namoyish etildi. Mazkur ko'rgazma do'stlik, o'zaro hamkorlik g'oyalari bolalar ijodida ham aks etayotganligining o'ziga xos namoyishi bo'ldi. Kurgazma katalogida ham olti davlat bolalari rasmlari badiiy ko'rgazmasining tashkil etilishi Shanxay xamkorlik tashkiloti davlatlarining turli madaniyatlarga hurmat, o'zaro hamkorlik aloqalarini kengaytirish borasidagi samarali sa'y-harakatlaridan dalolat beradi. Ushbu ko'rgazma Shanxay xamkorlik tashkiloti insonparvarlik va qadriyatlarni asrash g'oyalarini ilgari surayotganining o'ziga xos namoyishidir" deb qayd qilingan. Ko'rgazmaning chiroyli katalogidan o'zbek bolalarining ham serquyosh yurtimizning go'zal manzaralari, xalqimizning mexmondo'stligini aks ettirgan ishlari joy olgan. Bu rasmlar o'zbek ertaklari syujeti asosida yaratilgan.

XX asr oxiridagi Rossiya-O'zbekiston madaniy aloqalari to'g'risida gapirganda, Rossiya Badiiy Akademiyasi akademigi V.Sidorovning Toshkentda va O'zbekiston Xalq rassomi, O'zBA akademigi R.Axmedovning Moskva shaxrida

o'tkazilgan ko'rgazmalarini, shuningdek, O'zbekiston davlat san'at muzeyi kolleksiyasidagi rus avangardi asarlarining Sankt-Peterburgda ochilgan ko'rgazmasini alohida ta'kidlash o'rinli.

Mamlakatimiz madaniy hayotida 2005 yil Badiiy Akademiyaning zamonaviy san'at markazida bo'lib o'tgan A.Kasteev nomidagi Qozog'iston davlat san'at muzeyi rangtasvir asarlari ko'rgazmasi, shuningdek, O'zbekiston xalq rassomi O'.Tansiqboevning 100 yilligiga bag'ishlab chiqarilgan mashxur rassom asarlari katalogi takdimotida qozoq mutaxassislari ishtirok qilgani ham jiddiy voqeaga aylangan edi.

Va nihoyat 2006 yil 28 aprelda SHXT davlatlarining keng miqyosdagi "Baxor kamalagi" ko'rgazmasi ochildi. Aytish mumkinki, ushbu ko'rgazmaning ekspozitsiyasi MKZga kiraverishdagi maydondan boshlandi. Tomoshabinlar unda gavdalantirilgan SHXT ramzi, olti davlatning bayrogi va ko'rgazma nomini ko'rishdi. Birinchi qavat zall axborot markazi sifatida jixozlandi. Unda o'rnatilgan monitorlarda SHXT davlatlari madaniy xayoti, yutuqlari, erishgan natijalari namoyish qilib turildi.

2.2. Dars jarayonida milliylik ramzlaridan samarali foydalanib, o'quvchilarda hunarmandchilik sirlarini rivojlantirish.

Hozirgi kunda milliyligimizni, qadriyatlarimizni urf-odatlarimizni asrab avaylash mamlakatimizda yashovchi barcha millat fuqorolarimizning insoniylik burchi hisoblanadi. Agar biz o'tmishimizni bilmasak millatimiz, xalqimiz uchun qadrlil bo'lgan qadriyatlarimizni asrab avaylamasak va yosh kadr sifatida bu tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdira olmasak, Respublikamiz revojiga uni salmoqli o'sishiga tomoshabin vazifasini bajargan bo'lamiz. O'quvchilarda ma'naviyatimiz, o'tmishimiz urf-odatlarimiz va qadriyatlarimiz haqida bilimlarni rivojlantirish asosiy vazifamiz hisoblanadi. Shuning uchun ham muhtaram yurtboshimiz I.A.Karimov "**Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q**" deb takidlaganlar. Biz dars jarayonida milliylik ramzlaridan samarali foydalanib, o'quvchilarga hunarmandchilik sirlarini o'rgatishning bir necha ko'rinishlarini keltirishimiz mumkin.

Hususan hunarmandchiligimizning bir turi hisoblangan, millatimiz ramzi bo'lgan do'ppido'zlik san'ati qadimdan revojlantirilib kelgan. Bosh kiyimlar milliy libosimizning eng qiziqarli bo'lagi hisoblanadi.

"**Kiygich**" deb nomlanadigan dumaloq qalpoq "bosh"ning asosi hisoblanadi. Uning old qismi kashtali "cheroz" bilan turli rangdagi ipak iplarda "iroq" chokda bezatilgan. Avvallari bu kashtalarda yarim ko'chmanchi urug'larga xos bo'lgan tang'ani ko'rish mumkin bo'lgan.

Qashqadaryo voxasida XIX asrda badiiy madaniyat o'ziga xos tarzda shakllandi. Unda xalq san'atining o'ziga xos jixatlari aks etdi. Viloyatning Qarshi va Shaxrisabz singari yirik shaxarlari va ularga yaqin qishloqlarda misgarlik, kulolchilik, to'qimachilik, kashtado'zlik, gilam to'qish kabi hunarmandchilik turlari rivojlandi.

Qashqadaryo metall idish-buyumlar ishlab chiqarish eng rivojlangan joylardan biri hisoblanadi. Qarshi va Shaxrisabzda tayyorlangan metall idish-buyumlar ko'p jixatdan bir-biriga o'xshash bo'lsa-da, ularda o'ziga xosliklar ham mavjud. Bu yerda ishlab chiqarilgan idish-buyumlar O'zbekistonning boshqa markazlaridagi shu tikishda qo'llanilgan. Ustalar matolarini o'ziga xos rang, o'ziga xos bezakda tayyorlashgan. Enli to'g'ri chiziqlar ingichka xoshiyali chiziq bilan ajratilgan, romb shakli uchburchakli shakl bilan ketma-ket almashingan. Uchburchak tumor kurinishidagi shaklning pastki qismida tomchisimon uzun-uzun shokllar osilib turgan. Lola shakli solingan. Oddiy va pog'onasimon tutashgan romb shakllari gilamlarni bezatishda ham qo'llanilgan. Qashqadaryo adraslari bezaklarining ixcham, aniq va soddaligi bilan Fargona vodiysi va Buxoro adrasidan ajralib turadi. Ammo Samarqand gazlamalari Kashqadaryo adraslaridan bezaklari jixatidan jozibador.

Shaxrisabz Qashqadaryo viloyatining kashtaduzlik rivojlangan yirik markazi hisoblanadi. Bu yerlik xotin-qizlar bek va amir saroyi uchun katta suzanalar, tun, chopon, otlar ustiga yopinchi tayyorlashgan. Shaxrisabz suzanalarining o'ziga xosligi shundaki, uning kompozitsiyasidagi katta aylana markaziga guldastalar joylashtirilgan. Guldastalar atrofi mayda gulli xoshiyalar bilan to'ldirilgan. Qarshida esa do'ppilar sirti mayda chiziqlar bilan hoshiyalangan.


Qashqadaryoda, ayniqsa, an'anaviy gilamdo'zlik rivojlangan. Gilam to'qish bilan bu yerda asosan arablar shugullanishgan. Gilamlar o'zining yaxshi sifati bois bozorlarda xaridorgir bo'lgan. Bu esa gilam tukishga bo'lgan intilishni kuchaytirgan. Qarshidan 30 km uzoqlikdagi Qamashi, Xo'jaki, Denov qishloqdarida gilam to'qish rivojlangan. Bu erda "arabi gilam" deb yuritiladigan

patsiz gilamlar to'qilgan. Shuningdek, joynamoz, parda, turva, ko'p, xurjun, turli maishiy buyumlar uchun g'ilof, jildlar tayyorlangan. Bu buyumlarda kuchmanchi chorvador xalqdarning o'ziga xos madaniyati aks etgan. Gilam to'qishda keng galtakli dastgoxdan, mayda maishiy uy-ro'zg'or buyumlarini to'qishda esa tor galtakli dastgoxdan foydalanilgan. Gilamlar jundan to'kilgan. Gilam va boshqa buyumlarning chekka xoshiyasi uchun ipak ip qo'llangan. 1870 yilgacha faqat tabiiy buyokqlardan foydalanilgan. Keyinchalik tabiiy buyoqlar o'rnini anilin bo'yoqlar egallaydi. Bo'yoqlar bir-biridan aniq ajralib turadigan qizil, to'q sariq ko'k, yashil, oq, qora ranglardan iborat bo'lgan. Gilamlar to'qilishi va bezaklari jixatidan ham bir-biridan alohida ajralib turadi. Besh kashta yoki xurboylilik (nakshga qo'shimcha ip qo'shish) usulida to'qilgan gilamlar bir-biridan farq qiladi. Arabi gilamlar bezaklari tishsimon, pog'onasimon, kvadrat, romb, uchburchak shakllardan iborat. Bezaklarga qo'shimcha sifatida turli ranglarda zanjirsimon kvadrat yoki romb shakllari qo'shilgan. Arabi gilamlari bilan o'zbek gilamlari to'qilishi, bezaklari (geometrik shakllar almashinishi) jixatidan muayyan umumiylikka ega. Bu ikki musulmon xalq an'analari yaqinligidan kelib chiqqan. Shuningdek, o'zbek va arab gilamlarining o'zaro farqlari ham bor. Arabi gilamlarda jonzoqlar ramzini ifodalovchi belgilar bezak sifatida ishlatilmaydi. Kuchmanchi turkiy xalqlar madaniyatida esa jonzoqlarni tasvirlash an'anasi qadimdan mavjud. Arabi gilamlarda oy, yulduz singari osmon jismlari tasviri ko'rsatilgan. Bu arablarning islomgacha osmon jismlariga e'tiqod qilishgani bilan bogliq.

Arab gilamduzligida qizgilam alohida o'rin tutadi. Bu gilam har bir oilada muqaddas yodgorlik sifatida saqlangan. Ushbu gilam yosh oilani yomon kuz, suqlardan asraydigan muqaddas ramzlar bilan bezatilgan. Jumladan, mazkur gilamchaga ikkita qushning uslublashtirilgan shakli tushirilgan. Bu ikki qush ramzida er va xotin nazarda tutilgan bo'lib, ushbu ramz baxtli turmush va avlodlar davomiyligini bildiradi.


XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar O'rta Osiyo xududidagi an'anaviy san'atning barcha turlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Qashqadaryoda hunarmandchilikning ko'pgina turlari maxsulotlarga talab yo'qligi, fabrikalarda tayyorlangan tovarlarning keng yoyilishi tufayli deyarli yo'qolib ketdi. Dastlab kandakorlar va tukuvchilar o'z ish faoliyatini tuxtatishga majbur bo'lishgan. Kashtaduzlik esa qisman saqlangan. Qishlok xotin-qizlari jiyak, duppi tikish bilan shug'ullanishgan. Gilamduzlar ham ruzg'orbop gilamlar to'qish bilan chegaralanishgan. Arab va o'zbek gilamduzlari tomonidan to'qilgan arabi(qilimi), gajari, okenli gilamlarining hajmi 10-12 kv.m gacha etgan bo'lib, ular an'anaviy geometrik shakllar bilan bezatilgan. Hunarmandchilikning ayrim turlari yangi zamon talablariga moslashib, sanoat asosida ishlab chiqarish yo'liga o'tgan. Bundan tashqari misgarlik san'ati ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ustalar mis va temir idishlarga turli xil naqsh elementlaridan tashkil topgan bzak ishlarini olib borganlar.

Misgalik ishlaridan namunalar



Bundan tashqari shu hunarmandchiligimizning turlaridan yana biri kulolchilik san'ati ham jadal sur'atda revojlendi. Farg'ona, Quqon, Marg'ilon shaharlarida kulolchilikning juda ko'p turlari mavjud. Quyidagi rasmda Farg'onalik taniqli

usta Jalol Qobilov tasvirlangan. U kishi o'zidan ellikdan ziyot taniqli shogirdlar qoldirgan.



U. Xolmurodov singari ustalar o'zlari ishlab chiqarayotgan maxsulotlarda o'zbek zargarlik san'atining asriy an'analarini shaxsiy ijodiy izlanishlari bilan uygunlashtirib borayotganligi kuzga tashlanadi.



Zarduzlik 1990-yildan keng tarkalgan badiiy xunarmandchilik turiga aylandi. Qadimgi ustalar avlodi vakili B. Jumaev samarali ish olib borayotgan Buxorodagi tarixiy zarduzlik markazidan tashkari, O'zbekistonning deyarli barcha viloyat va tumanlarida zarduzlik san'ati keng tarkaldi. Afsuski, Buxoro zarduzligining azaliy an'anasi ommaviy axborot vositalarida yuksak san'at namunasi sifatida o'ylamay targ'ib qilinayotgan soxta san'atga aylanib qolmoqda.

Xorazm, Samarqand, Urgut, Nurota, Fargona vodiysi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida, asosan, O'zbekistonning janubiy va janubi-g'arbiy xududi axolisi extiyojiga mutanosib ravishda an'anaviy gilamchilik qayta tiklandi. Toshkent, Buxoro, Xiva va O'zbekistonning boshqa shaharlarida ipak gilamlar ishlab chiqaradigan ustaxonalar ishga tushirildi. Ular ishlab chiqarayotgan gilamlar xaridorlarning yuksak talablariga javob bermoqda. Ularning bezaklarida an'anaviy o'zbek gilamlari bezaklaridan tortib shark miniatyurasidagi syujetli saxnalargacha foydalanilmoqda.

O'zbekistonning turli xududida, ayniqsa, Farg'ona vodiysining Marg'ilon, Quqon kabi shaharlarida 1990- yillardan hunarmandchilik yo'li bilan shoyi matolari ishlab chiqarish qayta tiklandi. Keyingi yillarda mashhur italyan, fransuz, yapon va amerikalik kutyurelar O'zbekistonning an'anaviy shoyi matolariga qiziqish bildirmoqdalar. Respublikada tabiiy buyoqlardan foydalanish tajribasini ommalashtirgan, shuningdek, maxsulotlari bozorning yuksak talablari bilan an'anaviy estetikaning nozik didini uyg'unlashtirib yuborgan Marg'ilonda

hunarmandchilik markazi yaratgan qadimiy shoxchi ustalar avlodi Rasul Mirzaaxmedovning faoliyati aloxida diqqatga sazovor.

Kasanachilik asosida rivojlantirilayotgan zamonaviy kashtachilik bir qator o'zgarishlarga uchradi. So'zana turidagi yirik shaklli devorpechlar Urgut, Nurota, Kattaqo'rgon, Boysun, Denov, Sherobod, Shurchi, Sariosiyo, Kitob, Shaxrisabz, Koson, Kamashi, Guzor, Namangan, Andijon, G'allaorol, Baxmal, Shofirkon singari shaxar va qishloqlarda ishlab chiqarilmoqda. Urgut va uning atrofidagi Gus, Ispanza, Suflen, Payshanba qishloqlari kashtachilikning yirik markazlari bo'lib qoldi. Bu kashtalar uslubida XIX asr oxiri Samarkand kashtachiligi an'analari davom etmoqda. Kashtachilikning yirik markazlari Chuet, Marg'ilon, Andijon, Shaxrisabz, Kitob, Boysun kabi joylarda ham faoliyat ko'rsatilmoqda. Qadimiy chevarlar avlodi, "Tashabbus" respublika tanlovi g'olibi, usta chevar Oblaberdieva Zuxra (Buxoro viloyati), shuningdek, bugungi kunda 300 dan ortiq shofirkonlik chevarni ish bilan ta'minlagan Ramazanov Farxod (ip buyoqchisi) va Muxabbat Quchqorovalardan (chizmakash) iborat oilaviy tadbirkorlar tajribasi diqqatga sazovor. Nurota va Shaxrisabz kashtalari an'anaviy mavzularidan foydalanib, murakkab "ilma" usulida kashta tikayotgan Toshkentlik usta chevar Madina Qosimboyevaning ijodiy tajribasi ham o'rganishga arziydi.

Xalq badiiy hunarmandchiligini rivojlantirish soxasida xukumatimiz va qator xalqaro tashkilotlar olib borayotgan ishlar O'zbekiston an'anaviy badiiy hunarmandchiligi shodalari qayta tiklanishi va ravnaq topishiga ishonch uyg'otadi.

Yuqorida sanab o'tilgan an'anaviy badiiy hunarmandchilik sohalari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgan bo'lsa-da, san'atshunoslar ularni chuqurroq urganishi, batafsil tahlil qilishi, baholashi lozim.

Sharqda "Yaxshi poyafzal kishining ko'rki" degan naql yuradi. Ya'ni oddiy kundalik oyoq kiyimining amaliy va estetik ahamiyati shu tarzda ta'kidlanadi. Darhaqiqat, o'tmishda barcha hunarlar kabi oyoq kiyimi tikish xam odatiy ish bilan haqiqiy san'at o'rtasida turuvchi yumush xisoblangan. Shu bois bizgacha etib

kelgan qadimiy poyabzal namunalari zargarlik, kashtachilik va kulolchilik buyumlari qatorida muzey ekspozitsiyalaridan o'ziga xos o'rin egallagan.

Poyafzal tayyorlash san'ati bilan ustalar shug'ullangan. Poyafzal kuy (*charm*), echki (*sayrosi, buzi*), xukiz (*bulgar*) kabi xayvonlar terisidan tayyorlagan charmdan tikilgan.

Kavush keng tarkalgan erkaklar poyafzalidir. Kavush har bir xududda o'ziga xos tarzda tayyorlangan. Masalan, Toshkentda tikilgan *kavushlar* baland poshnali ekanligi va yukoriga egilgan tumshugi bilan farqlanadi. *Mukki, choris* erkaklar etiklarining turlaridir. Fargonada *malla etik* yoki *kun etik* deb ataladigan poyafzal xam etiklarning bir turidir. Ular jigarrang yoki sariq ranglarga buyalgan ' qalin, ammo yumshoq charmdan, ba'zan ag'darma qilib tikilgan. Ularning baland poshnasi va shoyi iplar bilan tikilgan gulchin oxirchupi bo'lgan. Badavlat kishilar shunday etik kiyishgan. Bayramga borganda yoki musobaqada boyvachchalar qizil charmdan tikilgan uzun kunjli yoki *bulg'ori etik* kiygan. Ularning baland poshnali va zar ip tikilgan *gajdumi* kashtali gulchin oxirchupi bo'lgan. XX asrda etikduzlar xrom, ya'ni qora charmdan *kora etik* tika boshladilar.

Kishlok joylarda etik bilan birga, xom teridan kunjtsiz qilib tikilgan yarim ochiq *chorsh* ham kiyilgan. Choriq ot va tuya terisidan tayyorlangan. Chul va tog'larda yashovchi axoli asosan qadimiy poyafzal turlari bo'lgan *malla etik, mukki, chorsh* kiyib yurgan. Maxmud Koshg'ariy (XI asr) *chorshni* kambag'allar poyafzali sifatida qayd qilgan. Uni har qanday odam o'zi tikolgan.

Toshtovon mukkiga o'xshash kalta etik bo'lib, u pishik charmdan, ba'zan past poshnali qilib tikilgan. Poshnasiz va tumshugi qayirib tikilgan *uyurtma etik* uning bir turidir. *Poychaki* poyafzali xom teri bo'lagidan tashki chokli qilib, kunji tizza barobar tikiladi. *Poychaki* uzun ip bilan to'pikdan bog'lanadi.

Tog'dagi yaylovlarda cho'ponlar uch oyoqchali yog'och boshmoq - *tovuldiros* qiyib yuradi. U tosh suqmoq va keshuvdan o'tishda qulay. *Tovuldiros* yomg'irli kunlarda uyda ham kiyib yuriladi. Uning tagiga patak solgan. yalang oyoqqa yoki ag'darma bilan kiyib yuriladi.

Dalada xukiz yoki otning xom terisidan tikilgan *xom kavush* kiyib yuriladi.

Ayollar poyafzalini ham *etikduz*, *maxsiduz*, *kavushduz*, *ustalar* tikishadi. Sariq yoki jigarrang charmdan tikilgan yarim yopiq poyafzal - *malla kavush* ayollar poyafzalining asosiy turidir. Yashil rangli tikilgan *ko'k kavush* ancha sifatli. Boy xonadon ayollari, asosan, xom charmdan baland poshnali qilib tikilgan kavush kiyib yurganlar.



Sharqlik ayollar uydan chikayotganida begona erkaklar nafaqat uning oyogi, balki lozimi poychasi va jiyagini ham ko'rmasligi uchun, albatta, echki terisidan tikilgan qora *maxsi* kiyib olishgan.

Yosh ayollar va qizlar uchun malti, nimchakma, baland poshnali *chakma*, qora charmdan *kavushlar* tikilgan.

Bolalar *kavush*, *mausi*, *etik*, *ichigi*, *mukki*, *chorsh* va boshqa poyafzal kiyib yurishgan. Bolalar uchun tikilgan *mukkicha* ba'zan popuk bilan bezatilgan. Bolalar maxsisi gomshoq qizil-jigarrang charmdan tikilgan. Bunday maxsini tikadigan ustalar *bachkanalar* deyilgan.

Saxtiyon tayyorlash usuli e'tiborni tortadi. Buning uchun ot terisidan foydalaniladi. Teri maxsus ramkaga tortilib, kigizga joylashtiriladi va qizil tarikq katlami bilan qoplanadi. Ustidan kigiz parchasi bilan berkitib, tarik yumshatilgan charm ustiga bosiladi. Uch kunda - charm qurigandan sung tariq olib tashlanib, teri ramkadan chiqarilib, kirtishlanadi va bo'yaladi.

XX asr boshidan fabrikada ishlab chiqarilgan past poshnali va uchli yopiq tumshukli rezina kalishlar kavushlarni siqib chiqara boshlagan. Rus fabrikalari ularni O'rta Osiyoda sotish uchun ishlab chiqargan. Charm kavushlar urf-odatlar bilan bog'lik libos tarkibida saqlanib qolgan.

Buxoro ustalar tikkan yumshok *zarduzi etik* va *kavushlar* juda bezakdorligi bilan e'tiborni tortadi. Ulardagi bezaklar rangli tekis baxmalda alohida ajralib turadi va yaltirok tillarang iplar bilan zich qilib tikilgan usimlik tasvirlari kuzga yaqqol tashlanadi. Etiklar astari maxalliy matolardan va patagi esa charmdan tikilgan. Bunday poyafzalni Buxoro amiri va uning saroy ayonlari, boylar kiyishgan. Bunday poyafzal namunalari xalq amaliy san'ati asarlari sifatida O'zbekiston muzeylarida namoyish etilmoqda.

Irosi kashtasi bilan bezatilgan Shaxrisabz poyabzali o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Undagi mayda o'simlik shakllari va o'ziga xos ranglar uyg'unligi kutarinki kayfiyatni hosil qiladi. Etiklarning astari va poshnasi rangli charmdan tikilgan.

O'zbekiston Davlat tarix muzeyining etnografik fondida turli poyabzallar (№31) kolleksiyasi mavjud. Bu yerda turli yillarda Andijon, Kattaqurg'on, Chuet, Shaxrixon kabi shaxarlarga uyushtirilgan etnografiya ekspeditsiyalari paytida olib kelingan erkaklar, ayollar va bolalar poyabzalining 200 dan ortiq namunasi saklanadi. Bir kism poyabzallar Toshkentdan topilgan. Ba'zi namunalar XX asr 80-yillarida Respublika poyabzal modellar uyi va 2-Toshkent poyabzal fabrikasidan olib kelingan.

Ular sagri, qo'polroq zamsh, xrom va loklangan charm, poshnali va poshnasiz, yogoch, charm, bir necha qatlam charmli, temir nagal qoqilgan va qoqilmagan, kashta, charm popuklar va boshqalar bilan bezatilgan, buyalgan, hunarmandlar tomonidan tayyorlangan turli xildagi etiklardir. Xususan, №31-1 kolleksiyadagi erkaklar etiklari ag'darma, astarsiz, ikki kavatli poshnali kurinishda tikilgan. Ularning gulchin oxircho'p bilan kunji birlashgan joyiga yashil va qizil iplar bilan kashta tikilgan. Poshna ustidan qizil va oq iplardan magiz uo'rnatilgan. Poshna taglikka mustaxkam birikishi uchun temir tirmoqlardan foydalanilgan. Kunjining soyaboni bir necha ingichka charm bo'laklaridan qilingan popuk bilan bezatilgan. № 31-2 kolleksiyadagi qizil charmdan tikilgan erkaklar etigining keng, o'rtacha balandlikdagi charm poshnasi yog'och mixlar bilan maxkamlangan. Gulchin oxircho'pi qora rangdagi kashta bilan bezatilib, ularning orasiga magiz tikilgan. Kunjining usti charm popuk bilan bezatilgan, ammo ular dastlabki etikdagi kabi orqada emas, balki orqa va oldida joylashgan.

№ 31 -3 kolleksiyadagi erkaklar etiklari tuk jigarrang charm bo'laklaridan tikilgan. Kunji ustiga ikki tomonidan ola-bula mato elimlangan charm soyabon yopishtirilgan. Kunj bilan gulchin oxirchup tutashgan joyda yashil ip bilan turt qator kashta tikilgan. Poshnasi charmdan, ingichka ip bilan tikilgan. Yashil charmli poshnasi takasimon qilib mixlab qo'yilgan. Och jigarrang charmdan tayyorlangan (koll. №31-22) erkaklar etigi kunji ustiga oq va sariq rangli ikki kavat soyabon qo'yilgan. Gulchini ikki tomondan ko'k ip bilan tikilgan.

Tagcharmlari tikma. Poshnalari baland, kavatma-kavat charmdan, temir nagal, tayanch changak bilan maxkamlangan.

Ot minganda kiyilgan erkaklar etigi e'tiborni tortadi (koll. № 31-36). Ular jigarrang charmdan, baland poshnali qilib tikilgan, poshna tagiga nagal qoqilgan. Poshnasi oq charmdan, qator qilib temir mixlar qoqilgan. Kunji ustiga oq charmdan soyabon qilingan *duruya* shoyi ip bilan tikilgan va oq jiyak bilan magizlangan.

Yashil sariq charmli, charmiga astar tikilgan erkaklar kavushi (koll. № 31-33). Jigarrang charm poshnasi dagal ip bilan tikilgan. Poshnalari qavatma-qavat charmdan, o'rtacha balandlikda, keng. 1948-yili Toshkentdagi Paxta kuchasi 73-uy buzilayotganda *sagri teridan* tikilgan, tumshugi bir oz. egilgan kavushlar topilgan. Poshnasi dumaloq bo'lib, unga o'tkir, temir changak qoqilgan. Tagcharm aylanasiga turli kattalikdagi mixlar qoqilgan. Sumlikda yurishga muljallangan mukki kavush e'tiborni tortadi (koll. №31- 18). Ular och jigarrang charmdan agdarma qilib tikilgan. Poshna va gulchini bir bo'lak charmdan, old qismi alohida charmdan bichilgan. Chetlari yassi jigarrang charmga dagal ip bilan ikki qator qilib tikilgan. Ularga ingichka charm bo'laklaridan yuqoriga tortib olinadigan bog'ichlar o'rnatilgan. Yashil rangdagi teridan tikilgan erkaklar maxsisining jigarrang agdarmasi va matodan astari bor.



2.3. Hunarmandchilikni revojlantirishda o'zbek xalq amaliy san'ati tugarak mashg'ulotlaridan keng foydalanish.

1920 yillardan O'zbekistonda maktabdan tashqari muassasalar, chunonchi pionerlar uyi va saroylari, yosh texniklar stansiyalari ish boshladi. Bu to'garaklarga xalq amaliy san'ati ustalari jalb qilindi. Xalq amaliy san'ati turlari, ya'ni yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, tosh o'ymakorligi, naqqoshlik, ganch o'ymakorligi, kashtachilik, misgarlik 43ta singari to'garaklar ochilib, xalq ustalari san'at sirlarini yoshlarga urgata boshladilar. Shulardan usta Shirin Murodov, Toshpulat Arslonkulov, Maxmud Usmonov, Maqsud Qosimov, Abdulla Boltaev, Qodirjon Xaydarov, Jalil Xakimov va boshqalar xalq amaliy san'ati ustalari yetishtirib chiqarishda 43ta hissa qushdilar. To'garak a'zolari 43ta yutuqlarga erishdilar. Butun xalq ko'rgazmalarida, yosh texniklar ko'rigi va badiiy kurgazmalarda qatnashdilar.

1960 yillarda to'garaklarni sistemalashtirishda pedagog olimlar, ilgor o'quvchilar, 43ta komsomol xodimlari, maktabdan tashkari muassasalarning metodistlari xizmat qildilar. 1963 yilda esa maktab o'quvchilarining Butun xalq ilmiy metodik konferensiyasi bo'lib o'tdi, bu konferensiyada maktabdan va sinfdan tashqari ishlar va boshqalarni formadomda metodlarini revojlantirish yo'llari muhokama qilindi. |

1967 yili mart oyida MK o'zining byurosida «Orientir» dasturini tasdiqladi. Shu tadbirlar asosida to'garaklarga e'tibor berish yanada kuchaydi. Bolalarni kasbga qiziqishi buyicha to'garaklarga jalb qilindi. Keyingi yillarda har bir shahar, rayon, viloyat, kolxoz, sovxoz, pionerlar uyi va saroylarida, klublarda har xil to'garaklar juda kup tashkil etildi. Ularning roli va ahamiyati ortib bormoqda. Ayniqsa tasviriy san'at to'garaklari ichida o'zbek xalq amaliy bezak san'ati to'garaklari keng tarqaldi. To'garaklar uchun naqqoshlik, ganch o'ymakorligi va boshqalar buyicha dasturlar metodik tavsiyanomalar nashr etildi. V. I. Lenin nomli jumhuriyat pionerlar va o'quvchilar saroyida N. Ostrovskiy nomli Toshkent shahar pionerlar va o'quvchilar saroyida, Toshkent shahar madaniyat uyida, Buxoro,

Xiva, Samarqand, Fargona, Qo'qon, Andijon va boshqa shahar, qishloqlarda, pionerlar uyi va saroylarida, maktablarda xalq amaliy san'ati to'garaklari keng quloqch yoydi. Jumhuriyatimizda xalq amaliy san'atini rivojlantirishda, malakali kadrlar yetishtirishda P. Benkov nomli jumhuriyat badiiy bilim yurtining amaliy san'at bulimi, Toshkentda ochilgan 63-hunar bilim yurti, Pedagogika oliy o'quv yurtlari, Madaniyat instituti, Teatr va rassomchilik instituti xalq amaliy bezak san'ati ustalari va to'garak rahbarlari katta hissa qushmoqdalar. Hozirda jumhuriyatimizdagi maktablarda, pionerlar uylarida, saroylarida, klublarda, madaniyat uylari va saroylarida, boshqa joylarda xalq amaliy bezak san'ati turlaridan to'garaklar ishlab turibdi. Ularda ming- minglab o'quvchilar san'at turlarini chuqur urgand quli gul mohir ustalar Usta SHirin Murodov, Abdulla Boltaev, Qodirjon Haydarov, Olimjon Qosimjonov, Mahkam Obloqulov, Toshpulat Arslonqulov, Muhitdin Raximov, Maxmud Usmonov va boshqalarning ishlarini davom ettirib kelmoqdalar. Keyingi vaqtlarda xalq amaliy bezak san'ati to'garaklarining ahvoli birmuncha yaxshilandi, ularga bo'lgan e'tibor kuchaytirildi. Klublar, madaniyat uylari, saroylari, pionerlar saroyi va uylari zamonaviy binolarga o'tkazildi va o'tkazilmoqda. Tasviriy san'at turlari buyicha olib borilayotgan to'garaklar ichida o'zbek xalq amaliy bezak san'ati to'garaklari alohida e'tiborga sazovordir. O'zbek xalq amaliy bezak san'atining xilma-xilligi kishini o'ziga jalb etadi va unga nisbatan qiziqish uyg'otadi. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati tugaragi tasviriy san'at darslarida olinayotgan bilimlarining davomidir. Xalq amaliy bezak san'ati to'garaklari shu san'atga qiziquvchilarning xohishi bilan yigilgan birlashmadir. Xalq amaliy bezak san'ati tugaraklarida bu san'at sirlarini maxsus ilmiy va amaliy asoslangan dastur asosida o'rgatiladi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati to'garaklarining maqsadi:

- tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarni, guzalliklarni seza bilishga, ulardan bahra olishga hamda ularga to'g'ri baho berishga o'rgatish.
- qatnashuvchilarni g'oyaviy, ahloqiy jihatdan odobli, mehnatsevar qilib, estetik ruhda tarbiyalash;

- qatnashuvchilarning izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirish;
- san'atga bulgan qiziquvchanligiiii oshirish;
- o'zbek xalq amaliy bezak san'atiga bo'lgan muxabbatni uygotish;
- xalq amaliy bezak san'ati va uning turlari, bajarish texnologiyasi va malakalarini shakllantirish, mehnatga bulgan muxabbatni tarbiyalash hamda kelgusida kasb tanlashga yordam berish va boshqalarni kuzda tutadi.

Maqsadni amalga oshirishda tugarak qatnashuvchilarining yoshi, qobiliyati va bilim darajasi hisobga olinadi. To'garak rahbari qat- nashuvchilarning yoshi, qobiliyati va bilim darajasini o'rganib, ularni kichik gruppaga, o'rta gruppaga va katta gruppaga bo'ladi. Kichik gruppaga yangi qabul qilingan qatnashuvchilar bir yil qatnab, keyin o'rta gruppaga o'tadilar, ular xam bir yildan so'ng katta gruppaga o'tadilar.

Bir yillik mashgulotlar uchun kichik gruppaga 44 soat, katta gruppaga 288 soat, o'rta gruppaga 16 soat ajratiladi. Bir xaftada kichik gruppada soatdan 4 soat, o'rta va katta gruppada soatdan 6 soat mashgulot utkazish tavsiya etiladi. Xalq amaliy bezak san'ati mashgulotini o'tkazish uchun ikkita (katta va kichik) xona ajra- ish lozim. Katta xonada nazariy mashgulot o'tiladi. Xona keng va yorug, toza bo'lishi kerak. Xalq amaliy bezak san'ati to'garak mashgulotlari olib boriladigan xonada quyidagi jihozlar bo'lishi tavsiya etiladi:

- umivalnik, stol-stullar, doska;
- to'garak burchagi (bunda to'garak tarixi, dars jadvali, navbatchi vazifalari, to'garak aktivistlari va boshqalar yoritilgan bo'lishi kerak);
- xalq amaliy bezak san'ati va uning turlariga oid stendlar tashkil etish;
- stellaj va shkaflar, epidiaskop, diaskop va boshqa texnik asboblari;
- xonani yoritadigan lampalar;
- derazalarga ikki xil, bittasi oddiy parda bulsa, ikkinchisi diafil'm va slayda yoki kino kursatishda yopib quyiladigan parda bo'lishi kerak;

- xalq amaliy bezak san'atiga oid al'bomlar, kitoblar, lug'atlar, ustalar ijodiga bagishlangan stendlar, aptechka burchagi, devoriy gazetalar, hafta yangiliklari, gazeta maqolalari uchun taxta (sunggi xaftadagi yangiliklar quyiladi) va hokazo.

Xalq amaliy bezak san'ati to'garak mashg'ulotlarini maxsus o'rta va oliy o'quv yurtini tugatgan mutaxassislar, xalq amaliy bezak san'ati ustalari olib borishi mumkin. To'garak raxbari qatnashuvchilarni gruppalariga bo'lishda ham bir gruppada 12—15 ta qatnashuvchi bo'lishini nazarda tutishi lozim. SHuningdek, to'garakka qatnashuvchilarni jalb qilishdan avval raxbar barcha shart-sharoitlarni mavjud qilishi, sungra raxbar to'garak tashkil qilganlik haqida e'lon yozib, joylarga osishi, yaqin atrofdagi tashkilotlarga borib, joylardagi kasabalar uyushmasi tashkilotlari vakillari, maktab raxbari bilan suxbatlashib, birgalikda tushuntirish ishlari olib borishi lozim. Bu yaxshi natija beradi. Birinchi tashkil etilayotgan to'garakka juda kup qatnashuvchilar yoziladi, lekin to'garak raxbari aloxida xat tuzib, qatnashuvchilarning ismi, familiyasi, ishlash, uqish, turar joyini, maktab o'quvchisi bulsa, ota-onasi haqida ma'lumotlarni yozib borishi kerak. Ma'lumki maktab o'quvchilari (11—12 yoshdagi) hamma narsaga qiziquvchan bo'lib, ular boshqa to'garakka a'zo bo'lishi mumkin. Shuning uchun raxbar o'quvchilarni to'garakka tanlab olishda jiddiy e'tibor berishi kerak. To'garakdan chetlashtiriladigan qatnashuvchilarni, bu ishga yaroqsiz yoki o'ulidan kelmasligini aytib, boshqalar oldida uyaltirmasligi kerak, aksincha, uni boshqa to'garaklarga qatnashishini yotqlik bilan tushuntirishi katta axamiyatga ega. Sinash muddatida ba'zi qatnashuvchilar o'z qobiliyatlarini darxol ko'rsatmasligi ham mumkin. Shuning uchun qobiliyatlariga darhol xulosa chiqarishga shoshilish kerak emas. To'garakka yaxshi qatnashish uni o'zlashtirish, mashg'ulotlarni qizikarli, aniq, faktlarga asoslangan bo'lishiga raxbar tomonidan tug'ri talab qilinishiga to'garak xayoti va uning vazifalari haqida batafsil tushuntirishga bog'liqdir. To'garak raxbari kichik gruppaga qatnashuvchilariga aloxida axamiyat berishi zarur, ya'ni o'qish, to'garak mashg'ulotlarini o'zlashtirishi, sababsiz qoldirmaslik kabi masalalarni nazorat qilishi kerak. To'garak tashkil etilgandan sung gruppaga

boshliqlari va aktivlari saylanadi. Gruppa boshlig'ini saylashda qatnashuvchilar ichidan obruli, qo'lidan jamoatchilik ishi keladigan, har tomonlama ulguruvchi, boshqalarga namuna bo'ladigan qatnashuvchi saylanadi. Saylangan gruppa boshlig'i to'garak rahbarining o'rinbosari hisoblanib, u davomat, ozodalik, navbatchilikni tekshirib boradi. Aktiv esa butun to'garak xayotining tashkiliy ishlarida asosiy yordamchi kuchdir. Rahbar barcha to'garak aktivlari ishi ustidan nazorat qilib borishi lozim. Bu nazorat aktiv qatnashuvchilariga ishongan xolda ularni to'g'ri yo'ldan borishlariga yordam beradi. Mashg'ulotdan so'ng ustaxonani tez-tez tozalab turishga to'g'ri keladi. Buning uchun navbatchilar grafigi tuzib, to'garak burchagiga ilib quyiladi. Navbatchilar xonani tartibga solib, kelgusi mashgulotga tayyorlab quyadilar. Navbatchi ikki kishidan iborat bo'lgani ma'qul.

To'garak xayotida ba'zan ayrim xollar bo'lib turadiki, bunda to'garak rahbari qatnashuvchini bir gruppadan ikkinchi gruppaga o'tkazishi mumkin. Masalan, o'rta gruppadan yaxshi o'zlashtirayotgan qatnashuvchini katta gruppaga va aksincha o'lgurmayotgan qatnashuvchini kichik gruppaga o'tkazadi. Bu xolda qatnashuvchining shaxsiga tegmaydigan ish tutish lozim. To'garak mashg'ulotlari belgilangan dars jadvali bo'yicha muntazam ravishda olib boriladi. Rahbar xar bir mashg'ulotga tayyorgarlik ko'rgani xolda vaqtlitirok kelishi xona sharoitini va qatnashuvchilarni bo'lg'usi mashg'ulotda qanday ishlar qilishini oldinrok kuzatib chiqadi. Rahbar mashg'ulot jarayonida xar bir qatnashuvchiga aloxida, ba'zan umumiy kursatma berib boradi. Kompozitsiya chizayotgan qatnashuvchiga mustaqil ish olib borishi uchun unga asosiy va umumiy tushuncha beriladi. Asboblarni to'g'ri ushlashdan boshlab, ishni pardoz berishgacha axamiyat berilishi tushuntiriladi. Har bir soat da 5—10 minutlik tanaffus berilishi zarur, chunki charchoqlik sust, idroksiz ishlar qilishga olib keladi, bu esa qatnashuvchilarning psixologiyasiga ta'sir qiladi. Shuning uchun mashg'ulot davomida xalq amaliy bezak san'ati haqida suhbat yoki uning ustalari xayotini so'zlab berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Rahbar to'garak qatnashuvchilari bilan ishlashda quyidagi prinsiplarga amal qilishi kerak:

- mashgulotning yo'nalishi qatnashuvchilarni ijodkorlik ruhda tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi;
- qatnashuvchilarning qobiliyat darajasini va shaxsiy qiziqishlarini hisobga olishi;
- to'garak ishlari ommaga va jamoaga foydali bo'lishi;
- to'garak hayoti qatnashuvchilarni mustaqil-likka, ijodiy faoliyatga va tashabbuskorlikka qaratilgan bo'lishi kerak.

To'garak mashgulotlarini dastur asosida quyidagi tartibda olib borish tavsiya etiladi.

Kichik grupp qatnashuvchilariga san'at, san'at turlari, asbob-uskunalar, xom ashyo va boshqalar o'rgatiladi.

O'rta grupp qatnashuvchilari asosan kichik gruppada olgan bilimlariga va tajribalariga asoslanib, mustaqil har xil narsalar bajaradilar.

Katta grupp qatnashuvchilari kichik va o'rta gruppalarda olgan bilimlarini mustahkamlaydilar, har xil murakkab buyumlar yasaydilar, naqsh chizadilar.

To'garak mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etishda botanika, geometriya, geografiya, tarix, tabiatshunoslik, matematika, ona tili, fizika va boshqa predmetlar bilan ko'rgazmali namunalari orqali bog'lanish lozim. To'garakni yaxshi olib borish uchun rahbar zamonaviy didaktikani yaxshi bilishi, uni amalda ijodiy qullay olishi, pedagogik faoliyatda didaktikaning quyidagi:

-ta'lim va tarbiyaning birligi, ilmiy bo'lishi, ko'rgazmalilik, onglilik, aktivlik va mustaqillik, ta'limning sistemali va izchil bo'lishi, qatnashuvchilarga mos bo'lishi, unda bilim, kunikma va malakalarni puxta, mustavkam o'zlashtirishi nazariyaning amaliyot bilan bog'liq bo'lishi, ta'lim berishda har qaysi o'quvchilarga xos xususiyatlarni hisobga olib o'rgatish prinsiplariga amal qilishi zarur.

Psixologiya shuni ko'rsatadiki, qatnashuvchining ko'rish, eshitish, ta'm bilish va sezgi organlari qancha ko'p qatnashsa, shuncha bilim, kunikma va malakalar yaxshi shakllanadi. Shunday ekan to'garak rahbari ko'rgazmali qurollardan unumli foydalanishi kerak. U faqatgina qatnashuvchilarning ishlarini ko'rsatibgina

qolmasdan, balki o'zi yoki qatnashuvchilar bilan tayyorlangan plakatlar, rasm va bezak materiallardan foydalanishi kerak.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati to'garaklarida quyidagi ko'rgazmali qurollar bo'lishini taxminan tavsiya etamiz.

Kichik gruppaga uchun: mavzularga oid plakatlar, slaydalar va diapozitivlar.

O'rta gruppaga uchun: Ustalarning naqsh kompozitsiyalariga oid plakatlar, kulolchilikda, yog'och o'ymakorligida, ganchkorlikda ishlatiladigan doira naqsh kompozitsiyalari, namoyon va uning turlariga oid plakatlar, qardosh xalqlar amaliy san'atiga oid fotoplakatlar, qardosh xalqlarning yog'och, suyak, tosh va boshqalarda ishlatiladigan naqsh elementlari qatnashuvchilarni kompozitsiya ishlaridan namunalari.

Katta gruppaga uchun: yog'och o'ymakorligiga moslab bajarilgan naqsh kompozitsiyalari, gilamga moslab chizilgan xomaki nusxalar, girih elementlari va kompozitsiyalar bajarishga oid plakatlar, suyak, yog'och va ganch o'ymakorligida ishlangan panjaralarning fotolaridan tayyorlangan plakatlar, kirmaga oid plakatlar, uyma xontaxtalar bajarishga oid plakatlar.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati to'garak mashg'ulotlarini ijobiy tashkil etishda texnika vositalari yetakchi rol o'ynaydi. Ko'pgina to'garaklarda maxsus ustaxona va kabinetlar ajratilgan bo'lsada, lekin texnikaning maxsus vositalari, jumladan kinoapparat, epidiaskop, televizor, diaskoplar bilan ta'minlanmagan. Texnika vositalaridan foydalanish qatnashuvchilarning bilimini boyitadi, san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. To'garak qatnashuvchilariga bilim berishda san'at haqida suhbatlar o'tkazib turish katta ahamiyatga ega. Qatnashuvchilarni zeriktirib quymaslik uchun kurgazmadan to'g'ri foydalanish va suhbat o'tkazish tavsiya etiladi.

Xalq amaliy bezak san'atining hayotda tutgan urni, turlari, Usta Qodirjon Haydarov, Toshkent kulolchilik maktabi, ganch uymakor usta Shirin Murodov, naqshlarni o'zbek arxitektura yodgorliklarida qullanilishi, girih va uning qullanilishi, qardosh xalqlar amaliy san'ati, Shohizinda, Z. Yusupov va

U. Toxirovlar ijodiy portret va hokazo, Maxmud Usmonov ijodi Xiva arxitektura yodgorliklari, yog'ochlarda kuylangan orzular, Samarqand to'garak tarbiya ishlarining eng qiziqarli va mazmunli shakllaridan biri ekskursiyadir. Ekskursiya qatnashuvchilarining to'garak mashg'ulotlarida olgan bilimlarini mustahkamlaydi, dunyoqarashini shakllantiradi va taassurotlari ularning ijodiy qobiliyatini oshiradi. Ekskursiya to'garak mashg'ulotlari dasturidagi biror temani kengroq atroflicha o'rganish uchun uyushtiriladi. To'garak rahbari qatnashuvchilarni xalq amaliy san'ati muzeyiga, tarix muzeyiga, tabiat muzeyiga, xalq ustalari ishlarining ob'ektiga, qo'shni to'garaklarga va ko'rgazmalarga, Samarqand, Buxoro, Xiva va boshqa shaharlarga ekskursiyalarga olib borishi mumkin. Ekskursiya vaqtida to'garak qatnashuvchilari ko'rgan va tanishgan asarlardan namunalar ko'chirib olishlari mumkin, bu esa ularning bilimini boyitadi, san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi. Ekskursiyani to'garak rahbari yoki muzey ekskursovodlari olib borishlari mumkin, bunda qatnashuvchilar xalq amaliy bezak san'ati haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'ladilar. Bizga ma'lumki, barcha san'at turlari kabi o'zbek xalq amaliy san'ati ham o'ziga xos terminlarga ega. Hozir olib borilayotgan xalq amaliy san'ati to'garaklarini qoniqarli axvolda emasligining sabablaridan biri, xalqimiz asrlar buyi ijodiy mehnati natijasida yaratilgan xalq amaliy bezak san'ati terminlarini yaxshi o'rganilmayotganligidir. Shu narsa ma'lum bo'ldiki, qatnashuvchilar terminlarning lug'aviy ma'nosini bilmaydilar. Shu sababli to'garak rahbari mashg'ulotni mazmunli, qiziqarli o'tishi uchun, xalq amaliy san'ati terminlarini chuqur o'rganishi va o'zlashtirishi, lug'aviy ma'nosini tushunish maqsadida o'quvchilarni o'zbek xalq amaliy san'atidan maxsus terminlar lug'ati bilan ta'minlashi; to'garak rahbari maxsus kartoteka tashkil etishi, ya'ni xalq amaliy san'atidan terminlarni yig'ib o'rganib borishi; mashg'ulot davomida to'garak a'zolariga oz miqdorda bo'lsa, xam terminlarni lug'aviy ma'nosini yozdirib, hamda tushuntirib borishi; o'zbek xalq amaliy san'atidan izoxli lug'at degan stend tashkil etishi va xonaga moslab ilib quyishi

maqsadga muvofiqdir. SHunday stendda taxminan quyidagi terminlarni yozishni tavsiya etamiz.

Bofta — o'simliksimon naqsh elementi. Tanob aylanib o'tib, hosil qilgan jozibali shakl. Bofta xalq amaliy san'atining barcha turlarida ishlatiladi. Uning to'g'ri egri va aralash chiziqli turlari bo'ladi.

Ganchxok — soz tuproq, qum va ganchni suv bilan aralashtirib hosil bulgan qorishma. Ganchxok tayyorlashda bir qism ganch, bir qism qum. bir qism soz tuproq elanmasdan aralashtiriladi. Suv qushib yaxshilab xolvaytar holatiga kelguncha aralashtirib keyin devorga suvaladi.

Namoyon — forscha ko'rinish, manzara demakdir. Ruscha panno. Namoyon eng mukammallashgan yetuk naqsh kompozitsiyasi. Namoyon voqelikning umumlashgan tasviriy obrazini o'zida aks etadi. Masalan, chamanzor, bogu-bustonlar, daryolar, gullar, barglar va boshqalarni aks ettiradi. Namoyonning chetlariga ko'pincha xoshiya namoyonning badiiy qilib kursatishda muhim rol uynaydi. Namoyon hech yoqqa ulanmaydigan mustaqil kompozitsiyadir.

Targ'il — naqqoshlikda naqshning gul va barglarini o'zidagi hosil bo'lgan soyalarni xar xil rangli chiziqlar yordamida pardoqlash. Naqqoshlikda targ'il pardoq berishning bir turi bo'lib, naqqoshlar tabiatdagi gul va barglarni o'zidagi soyalarni rangli chiziqlar yordamida tasvirleydi. Tabiatdagi gullarning urug' va changlarini xam naqshni pardoqlashda chizib buyab tasvirleydi.

Usta — biror xunarni egallab, shu soxada malaka orttirgan shaxs. O'z xunarini yaxshi biladigan kishi.

Xalq amaliy san'ati to'garagi oldiga quyilgan tarbiya masalalarni xal qilishda mashg'ulotdan tashqari qilinadigan ishlar muhim rol o'ynaydi, chunki qatnashuvchilarning mashg'ulotlarda o'rgangan bilim va tajribalarini mustahkamlashda, dunyoqarashini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Mashg'ulotdan tashqari quyidagi ishlarni uyushtirish maqsadga muvofiqdir:

tasviriy san'at xalq amaliy bezak san'ati, tarix muzeylariga, ganch, yog'och, tosh uymakor ustalarning ishlayotgan joylariga, arxitektura yodgorliklariga hamda qushni to'garakka ekskursiya qilish;

O'zbekistondagi xalq amaliy bezak san'at» ustalari, san'atshunos olimlar va boshqalar bilan uchrashuvlar o'tkazish;

qatnashuvchilarning ishlaridan ko'rgazmalar tashkil etish.

«**YOSH ustalar**» nomli devoriy gazetalarni muntazam chiqarib turish.

-«Mohir qo'llar», «Bizning ustalar», «Go'zallik soxibkorlari», «Mashhur o'ymakor ustalar» temalarida stendlar tashkil etish;

-mashhur ustalarning ishlaridan va qatnashuvchilarning ishlaridan fotoalbomlar tayyorlash;

-yosh uymakor ustalarning xayoti va ijodiga bagishlab ijodiy jurnallar tayyorlash; qatnashuvchilar o'rtasida konkurslar o'tkazish; viktorinalar tashkil etish; - mashg'ulotdan tashqari vaqtlarda xalq amaliy bezak san'ati, arxitektura yodgorliklari va boshqalarga oid diafil'mlar va kinofil'mlar ko'rsatish.

Arxitektura, muzey yoki ganchkorlar, yog'och uymakorlar, misgarlar ish ob'ektiga borish, ustalarning ishlaridan naqsh namunalaridan nusxa- lar olish.

Xalq amaliy bezak san'ati ustalarining naqsh kompozitsiyalari va uyma ishlaridan fotonamunalar va ko'rgazmalar tashkil etish; olimpiadalar o'tkazish;

ustalarning ishlaridan fotonamunalar saqlash uchun aloxida papkachalar tashkil etish;

-bu ishlar to'garakning maxalliy sharoitiga moslab, to'garak dasturiga asoslanib, tuziladi, raxbarning ish rejasi asosida olib boriladi.

Xalq amaliy bezak san'ati tugragi belgilagan dastur asosida to'garak qatnashuvchilari quyidagi talablarni hayotda tatbiq etishi lozim:

1 o'zbek xalq amaliy bezak san'atining hayotdagi roli va uning ahamiyati;

2 xalq amaliy bezak san'atida ishlatiladigan materiallarning hammasida ishlay olish;

3 xar xil asboblarda erkin ishlay olish;

- 4, naqsh turlari va ularning elementlarini chiza bilishi;
 - 5 o'simliksimon, geometrik, ramziy va boshqa naqsh turlarini tuza bilish;
 - 6 bu naqshlarni xalq amaliy san'ati turlarida qullay bilish;
 - 7 xalq amaliy bezak san'ati buyumlarini yasay olish;
 - 8 ish o'rnini toza tutish, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi va gigiyena qoidalarini bilish;
 - 9 ish vaqtidan unumli foydalanish;
 - 10 ish o'rnini va ishning eng ilg'or metodlarini tashkil etishni bila olishi;
 - 11 murakkab bo'lmagan xalq amaliy bezak san'ati asarlarini o'qiy olish va ularni tahlil qila olishlari kerakligi va boshqalar.
- Bu to'garak mashg'ulot dasturini to'liq o'zlashtirgan xar bir qatnashuvchi turli joylarda klub, madaniyat uyi qoshlarida xalq amaliy san'ati bo'yicha o'qituvchilar, to'garak raxbari sifatida ishlashlari mumkin.

O'zbek xalqi o'zining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. O'zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzeydir. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlardagi har bir arxitektura yodgorligi bir buyuk asar, nodir qulyozmalar, xalq amaliy san'ati namunalari bir vaqtlar o'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolat beradi, chunonchi ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlar ularning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga, ular orqali o'z orzu umidlarini, muhab- batlarini xalqqa *izhor* etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos tomonlari, haqiqiy o'zbekcha nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida. SHuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'atini ko'z qorachig'idek saqlash, qadrlash va ulardan foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amaliyot uslublarini joriy etish, tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt chidam, qat'iyat, xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga daxldor etish maksadga muvofiqdir.

Klub muassasalar qoshida o'zbek xalq amaliy bezak san'ati to'garaklarini tashkil etish, kishilarni, ayniqsa to'garak qatnashuvchilarini siyosiy-g'oyaviy va estetik ruhda tarbiyalashda, go'zallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san'atga bulgan qizikishlarini kuchaytirish, kasb tanlash, kunikma va dunyoqarashni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. SHunday ekan o'zbek xalq amaliy bezak san'ati va uning turlari bulmish ganchkorlik zargarlik, kulolchilik, misgarlik, yog'och uymakorligi va boshqa to'garaklarda to'garak rahbar» barcha imkoniyatlardan samarali foydalanish uz ishlarini rejali tashkil etish va tarbiyaning hamma tarkibiy qismlarini kompleks amalga oshirishga erishishi kerak. O'zbek xalq amaliy san'ati to'garaklari mashg'ulotlarining samaradorligini oshirish uchun texnika vositalaridan foydalanib kinofilmlar, diafilmlar slaydalar, namoyish qilish, ilmiy asoslangan dasturlar tuzish, o'quv metodik ko'rgazmalar tayyorlash, ekskursiya, tanlovlar, viktorinalar o'tkazish, hozirgi zamon pedagogik-psixologiyasining ilgor yutuklariga suyangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, o'quv moddiy bazasini mustahkamlash, mahalliy materiallardan foydalanish, ko'rgazmalar tashkil etish, kabinetlarni zamonaviy jihozlash, ta'lim-tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun didaktik prinsiplar, ya'ni ta'limning tarbiyalovchi prinsipi, ilmiylik prinsipi, muntazamlik prinsipi va ketma-ketlik, onglilik-aktivlik, ko'rgaz malilik, o'qitishning qatnashuvchilar kuchiga yoshiga mosligi va boshqa prinsiplarga rioya qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'at, ham hunar. U asrlar mobaynida ota bobolarimiz tomonidan kuz qorachigidek asrab avaylab kelingan xalq amaliy bezak san'at! durdonasidir. Tarixda va ayni kunlarga bizda saqlab kelinayotgan bu amaliy san'at turlar! kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanadi. Zers uyib, chizib,

tir nab, buyab ishlangan takrorlanmas naqshlar inson idrokining, odam his tuygularining ifodasidir. Balgoli yog'och suyak, qora loy ganch va boshqalarga ijro etilgan hayot qo'shig'idir.

Odatda yorqinligi va tusi bir-biriga yaqin bo'lgan ranglar o'zaro birlashadilar, Ranglar o'zaro tuslar orqali birlashganda, ular aloxida jarangdordik kasb etib sifat o'zgarishlariga yuz tutishi ko'zga tashlanadi. Umumiy "kolorit"dan ajralib qolgan rang nomuvofiq begona bo'lib ko'rinadi va tasviriy asar yaxlitligiga putur etkazadi. Tasviriy asar barcha ranglarning o'zaro bog'liqligi asosida ko'riladi.

Kolorit (italyancha *colonio*, lotincha *color* - rang, buyoq) - tasviriy va amaliy san'at asarlarida voqelikni real va ifodali tasvirlashda ranglarning o'zaro mutanosibliigi.

Tasvirdagi turli ranglarning garmonik, guzal tus birikmalari o'rtasidagi o'zaro bog'likligi "kolorit" deb ataladi.

Voqelikni ta'sirli tasvirlash vositasini tarkibiy qismi bulgan kolorit asarning g'oyasi, mazmuni. davri uslubi hamda muallifning sharhiga bog'liq. Tarixda voqelik tasvirida mahalliy ranglar ozmi-ko'pmi cheklanib, ramziy ranglardan ko'proq foydalanish (o'rta asrlar san'atida) va voqelikni barcha buyoqlarda (uning rang, tus, nur soya va boshqalardan foydalanib), rangdor ifodalash an'anasi shakllangan. Kolorit ranglar uyg'unligiga ko'ra, iliq (qizil, sariq, zargaldoq) yoki sovuq (kuk, yashil, binafsha), sokin va jiddiy, och yoki tuq, rangdorligiga ko'ra, yorqin, xira va boshqa bulishi mumkin

Kolorit bizga olamning boy, rang-barang va go'zalligini ochib beradi. U musavvirga tasvir holatini ifoda qilishda yordam beradi. Kolorit osoyishta, zavqlatiruvchi, xavotirli, mayus bulishi mumkin, shuningdek iliq va sovuq, yorqin va bug'iq buladi.

Rang tasvir san'ati - rang va nur uyg'unligi san'atidir.

Voqelikni buyoqlar vositasida tasvirga tushirar ekansiz, ranglarning bir-biriga ta'sirini nazarda tutmoq va ranglar uyg'unligi asosida tasvirlamoq zarur.

Shunisi muhimki, tasvirda to'g'ri to'tashgan ranglar uyg'unligi, go'zallikni anglay olish bilan birga, nafis asar guzalliligini bilish ravnaqiga xam zamin yaratadi.

Amaliy san'at turlari naqqoshlik, kulolchilik, kashtachilik, gilamduzlik, zargarlik, zardo'zlik, chitgarlik va boshqalarda kolorit muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa naqqoshlik san'atida kolorit muhim o'rin tutadi. Naqqoshlik maktabda xar bir ustalarning o'ziga xos koloritlariga ega. Xorazm naqqoshlik maktablarida va me'moriy naqshlaridagi umumiy rang ya'ni koloriti moviy bo'lib, kishiga salqinlik, tinglantiruvchi ya'ni simmetrik ranglardan foydalaniladi. Ayniqsa me'moriy naqshlarini kuzatar ekanmiz xavo rang koloritda bezalgan naqshlar o'ziga xos joziba beradi. Xiva naqqoshlik maktabida asosiy kolorit sovuq ya'ni moviy rangni egallaydi.

Toshkent naqqoshlik maktabida asosini yashil, jigarrang, va xavo rang koloritda bezaladi. Asosan yashil koloritda Jalil Xakimov quli ishlagan. Naqsh Kompozitsiyalari ranglari bir-biriga nafis, yaqin juda aniqlikda bajarilgan.

Toshkentlik naqqoshlik maktabining naqqoshlik maktabining hozirdagi vakili Maxmud Turaev pushti, xavo rang binafsha, yashil, jigarrang kabi koloritlarda bajaradi. Xar bir koloritda bajargan naqshlari o'ziga xos jozibaga va ko'rinishga ega. Ham tuq, ham och-rang koloritda bajarilgan. Tayir Tuxtaxujab o'ziga xos jigarrang oltisimon rang koloritda binolar va buyumlarni moxirona bezagan. Naqsh kompozitsiyalarga nazar solib qarasangiz iliq koloritdagi ranglar kishiga ko'tarinki rux, bayramona kayfiyat uyg'otadi. Fargona naqqoshlik maktabining namoyondasi Saidaxmad Maxmudovni naqsh kompozitsiyalarida koloritga umuman buysinilgan bulsada, lekin ko'pgina naqshlarda zamini iliq rang bilan sovuq ranglar kontrasti uyini orqali bajarilgan.

Ushbu namoyonda iliq va sovuq ranglar zaminida kontrast berilib, har bir zamin ranglari o'ziga xos jozibaga ega. Ushbu naqshlar Fargona vodiysi tabiatga xos koloritda bajarilgan. Barglar, gullar ham iliq xam sovuq rangda buyalib pardoz berilgan.

Anvar Ilxomov ustoz Jalil Xakimovning an'ana asosida davom ettirib yashil va boshqa koloritlarda naqshu-nigoralar ishlab kelmoqdalar.

Amaliy san'at turlari naqqoshchilik, kulolchilik, kashtachilik va

boshqalarda kolorit birorta rang masalan zangori, yashil, qizil, jigarrang, binafsha, pushti kabilarning xukmronligiga asoslanadi. qolgan ranglar unga buysundiriladi.

Chunonchi jigarrang muhitida qolgan hamma rang tulari jigarrang bo'ysindiriladi.

Kolorit biror narsa yoki binolarning o'ziga xos tomonlari majmuini xam ataladi. Badiiy asarning o'ziga xos xususiyatlari ya'ni davr, milliylik, psixologik holatni xullas voqelik va boshqalarni o'ziga xos tomonlari yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda kolorit asar mazmunini va g'oyasini musiqadagi dirijor vazifasini bajaradi. Kolorit tushunchasini qiyomiga chiqarib o'rgatish tayyorlayotgan kadrlarimizni kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakllatirishda muhim axamiyatga ega.

Amaliy san'atda Kompozitsiya nima? Kompozitsiya lotincha "komposuto" so'zidan olingan bo'lib, to'qish, joylashtirish, bir - biriga solishtirish, joylashtirish, ayrim qismlarini ma'lum qonuniyatlar asosida bir butun qilib bog'lash ma'nosini bildiradi. Naqqoshlik, yog'och uymakorligi, ganch uymakorligi, kulolchilik, zargarlik, kandakorlik, zarduzlik, badiiy tukimachilik, metallarga badiiy ishlov berish kabi amaliy san'atning boshqa turlarida ham Kompozitsiyalar yaratilish jarayonida ana shu qonun - qoidalarga rioya qilinadi. Kompozitsiya asoslarini g'oya, mantiq, mazmun, joylashtirish, simmetriya, assimmetriya, turli yo'nalishdagi xarakterlar, holat, marom, nisbiylik, markaz, muvozanat, stilizatsiya, kolorit, uyg'unlik, keskin farqlanish, kabi mezonlardan tashkil topgan. Kompozitsiya asoslaridagi har bir mezon o'zining juda katta mas'uliyatli vazifasiga ega. Shulardan biri ritmdir. Ritm deganda nima tushuniladi. Ritm (yun. rito-qaman), marom, davriylik - 1) tabiiy xodisa va jarayonlarining muayyan vaqt davomida takrorlanib turishi. Tasviriy san'atda ritm badiiy san'at asarida ifoda

vositalaridan bo'lib, asar tuzilishining o'ziga xos tomonini belgilaydi, uning g'oyaviy - badiiy estetik mazmunini chuqurroq ochishga xizmat qiladi.

Ritm qurilishi simmetriyaning turli unsurlariga, shuningdek, bir xil yoki bir - biriga uxshash (yakin) shakl va narsalar (chiziq, muxrlangan xarakat, nursoya, buyoq dog'lari va xokazo.)ning teng hajm va oraliqda tekis me'yorda asoslanadi. U yoki bu ritm qurilishi yordamida asarga turlicha emotsionagtik baxsh etish mumkin. Amaliy bezak san'ati hamda me'morlikda asar Kompozitsiyani yaratishda va obrazni shakllantirishda ritm muhim o'rin tutadi. Me'morlikda hajm, shakllar (ustun, darcha, balkon va xakozo.) bir maromda qaytarilishi yoki oralab kelishi binoga o'zgacha mazmun kiritadi, naqsh mujassamoti xam ritmga asoslangan hamda yaratiladi: bir yoki bir necha naqsh bo'laklarining takrorlanishi yoki oralab kelishi natijasida asarga tugallik yoki cheksizlik bag'ishlanadi.

Kompozitsiyadagi metrik takrorlanish, ritm-naqsh Kompozitsiyadagi bir unurni bir necha sharti davriy takrorlanishdir. Metrik takrorlanishning turli-tumanligi xar xil sharoitda unsurlarning shakli va orasidagi masofaning kattaligiga boglik. Metrik takrorlanishni naqqoshlikda yaqqol ko'rish mumkin. Metrik takrorlanish ritm naqshning asosiy qonuniyatlaridan biridir. Bir qator joylashtirilgan bir xil geometrik shakllarni ko'rib chiqaylik. Ularning soni ko'p bo'lmasa, qator tugallanmagan, tushunarsiz bir narsaga uxshaydi. Shu unsurlar ikki marta takrorlansa umuman qator deb bo'lmaydi. Nimaga deganda ularni aloxida-aloxida ko'ra olamiz. Metrik takrorlanish estetik ko'rinishga shunday holatda keladiki, bizning ko'zimiz unsurlarni aloxida-aloxida qilib ko'ra olmaydi. Bu holat unsurlarning soni kamida oltitadan oshgandagina hosil bo'ladi. Davriy takrorlanishning uch kurinishini ko'rib chiqaylik:

Oddiy metrik takrorlanish bitta unsur takrorlanishidan hosil bo'ladi. Murakkab metrik takrorlanish ikkita xar xil unsurlarni ma'lum tartibda metrik takrorlanishidan hosil buladi.

Juda murakkab metrik tarorlanish bir necha unsurlarni ma'lum tartibda takrorlanishidan hosil buladi.

Xar uchchala turda hamma unsurlarning takrorlanishini Kompozitsiya chizishda shunday ishlatish kerakki, unsurlar o'zaro boglangan bo'lsin va ular orasida qonuniyat borligi sezilib tursin. Aks xolda chizilgan naqsh Kompozitsiyasida tasodifiylik, tartibsizlik hosil bo'ladi. Kompozitsiyada metrik takrorlanish bo'lsa, u juda qiziqarli ko'rinadi. Buni san'at asarlarida kuzatish mumkin. Metrik takrorlanish san'at asarida yaqqol ko'rinishni yoki sezilar-sezilmas qilib ishlanishini ko'rishimiz mumkin. Birinchi xolda metrik takrorlanish asardagi unsurlarning aniq ichki uyushqoqligini tasvirlash uchun qullaniladi. Ba'zi bir xollarda naqshdagi metrik takrorlanish ongli u ravishda buziladi. Uning o'rniga boshqa bir unsur quyiladi. Bu unsur boshqa unsurlardan, kattaroq, rangining uzgartirilib quyilishi esa ko'zlangan maqsadga javob beradi. Bir xil kattalikdagi unsurlarni ma'lum masofada takrorlanishi xam - ritm deyiladi. Bu qonuniyat xarakat va muvozanat qonuniyatlari bilan birlashib, naqshning xarakatini yanada kuchaytiradi. Ritm qatorining xarakterini o'zgartirish yo'li bilan uning xarakatini yoki turgun holatini kuchaytirish mumkin. Arifmetik yoki gometrik profesiya yo'li bilan hosil qilingan ritmik qator undagi xarakat holatining qay darajadiligini kursatadi. Arifmetik riogressiya asosida tashkil qilingan ritmik qator o'z elementlarining kattaligi va orasidagi masofalar xarakterining o'sib borishi bilan ifodalanadi.

Bizning ko'zimiz xar bir ritmik qatorni tez sezishga qodir. Shuning uchun ritmik qator tez o'tiladi. Ba'zi masofalarini asta-sekin kichiklashtirib qator hosil qilinadi. Naqsh qatoridagi unsurlar va ular orasidagi masofa ma'lum tartibda aniq chizilsa, ritm yaqqol seziladi. Bu boshlangich naqshning asosiy qonuniyatlari qilib olingan. Shunday qonuniyatlarga amal qilinmasa, ritm o'z kuchini yuqotadi va uz vazifasini bajara olmaydi. Amaliy san'atda ritmning ko'rinishi juda xilma-xildir. Buni naqqoshlikda turli san'at asarlarida uchratish mumkin. Unsurlarning asta-sekin, ma'lum tartibda o'zgarib borishi, naqshlarning murakkablashishida ko'rinadi. Naqqoshlikda ritm aniqlik, zebolik va jozibadorlilikka erishishga yordam beradi. Naqqosh bu qonuniyatga asoslanib, o'zidagi ma'lum bilim va

malakalardan foydalanib, o'z kompozitsiyasini yaratadi. Yangi naqshdagi ritm xarakterini aniqlashda naqqosh uz his-tuyg'usiga xam suyanadi.

Bugungi kunda yoshlarga ta'lim-tarbiya berishda madaniyatimiz. qadriyatlarimiz, milliy san'atimiz namunalaridan, ota-bobolarimiz tomonidan yaratilgan va butun jaxonga mashhur bulgan ajoyib san'at namunalaridan keng foydalanishga katta axamiyat berilmodqa.

Rang-barang o'simliksimon, geometrik naqshlar, ularning uzaro joylashishida chuqur mazmun singdirilgan. Tasvirlangan naqshlarda ramziylik ustivordir. Ota-bobolarimiz qadimiy obidalarni nafis naqshlar bilan bezaklab olish bilan bir qatorda ular orqali uz orzu-umidlarini. muxabbatlarini. tilaklarini kuylaganlar. Naqqosh ota- bobolarimiz inson ruxiyatini juda chuqur va xar taraflama o'rganib, uyparni ajoyib naqsh nigorlar bilan boyitganlar. Naqshlangan uyda kishilar xotirjam. ruhiy osoyishtalik og'ushida bulishi, uzoq umr kurishini donishmand bobolar asrlar davomida hayotiy tajribalar asosida ilg'aganlar. Naqqoshlik san'ati tilini bilish uchun cheta naqqoshlar kompozitsiya qonun-qoidalarini, naqshning xar bir unsuri va ranglarining ramziy alifbosini to'liq uzlashtirishgan.

Xozirgi kunda ta'lim tizimida, xususan kasbiy to'garaklarda «Ustoz-shogird odobi» an'analaridan foydalanish masalasi yetarli darajada o'rganilmagan muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki hozirgi ta'lim tizimida tayyorlanayotgan mutaxassislarning faqat kasbiy ko'nikma va malakalariga emas, balki shaxsiy fazilatlariga xam talablar quyilmoqda. O'zbekistonda ta'lim tizimi jarayonida ijodiy, faol, ma'naviy boy shaxsni shakllantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratib kelinmoqda. Lekin biz bugungi kunda yetuk mutaxassislar tayyorlashda qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo'lsada, ajdodlarimizning boy merosi hamda tajribalaridan to'liq foydalana olmayapmiz.

Kup yillik izlanishlar guvohlik berdiki, xalq me'morlari, xalq ustalari taomiligi xos anchagina muammolar bor, ulardan o'zbek xalqining milliy naqshlarini tarixini, maktablarining, ustalarning tajribalarini, usta-shogird

an'analarini, bezaklarning ramziy alifbosi, asarlarni badiiy taxlil qilish va boshqalarni chuqur ildizigacha o'rganish. Shunday ekan, asrlar davomida ulkan madaniy boyligimiz, xususan, o'zbek milliy xalq amaliy bezak sarhadining keng tarqalgan turlarining o'ziga xos tomonlari, maktablari, bajarish texnologiyasi. uslublari. ularni yaratgan ustalarning muborak nomlarini unutishga xaqqimiz yo'q. Ana shu sababli bu noyob sarxad durdonalarini saqlash, ilmiy urganish. ularni yoshlarga o'rgatish va kelajak avlodga yetkazish muhim vazifamizdir.

O'zbek xalq ustalari tomonidan yaratilib kelinayotgan jamiki naqshlar borki. ular tabiatni va voqeilikni shartli tasviriga ega buladigan o'ziga xos qonun-qoidalarga xam buysunadi. Bu qonuniyatlar tabiatning uzidan olinadi. Qaysi bir o'simlikni olmaylik faqat bir tomonga o'sadi. Masalan, majnuntol, xuddi pastga qarab teskari o'sayotgandek tuyuladi, lekin xaqiqatda esa u ildizidan tana, tanadan novda, novdadan barg bulib, bir tomonlama yunalishda davom etib keladi. Tabiatning bu qonuniyati naqshda uz aksini topgan. Har bir usta naqsh kompozitsiyasini chizayotganda naqshlar qog'oz yuzini tuldirish uchun emas balki, ongli ravishda tabiat va badiiy qonun-qoidalariga amal qilgan xolda manzara va tasvirni to'liq yoritib berishga xarakat qilishi kerak. Shuning uchun ham naqqosh ijodida eng qiyin va eng ma'suliyatli bosqich naqsh kompozitsiyasini chizish turadi. Agar naqsh kompozitsiyasi tabiat qonuniga zid bulsa, rangda, targil berishda. oq band va naqsh obisini tortishda xar qancha yutuqqa erishilsa xam ish kungildagidek chiqmaydi. Naqshga birdaniga qaraganimizda chiroyli Yusinsada, bir ozdan keyin naqsh nuqsonlari sezilib qoladi.

Xush, kompozitsiyaning uzi nima?

Kompozitsiya —lotincha suz bulib, tukish, bir -biriga ma'lum tartibda joylashtirish, solishtirish ma'nosini anglatadi. Naqsh kompozitsiyasini ishlashda ritm, simmetriya, assimetriya, komponovka, davriy takrorlanishi, markaz topish, bezakning dinamikligi, tabiiyligi, chiroyliligi, pardozi va ranglarning uygunligi kabi qonun-qoilalari muhim rol' o'ynaydi.

Komponovka (joylashtirish) ----chizilayoggan naqshi yoki biror tasvirni qog'oz yoki biror yuzaga to'g'ri joylashgirişni tushunamiz.

Simmetriya —grekcha suzdan olingan bulib, o'lchovlarning bir—biriga mosligi, tengligi, mutanosibligi kabi ma'nolarni anglatadi.

Ritm—kompozitsiyaning eng kuchli va xarakterli asosi xisoblanadi.

Ritm naqsh elementining ma'lum masofada bir tekisda takrorlanib kelishi bulib, nakshdagi xarakatning uzluksiz va guzal kurinishini ta'minlaydi.

Assimetriya —kompozitsiyada simmetrik muvozanatning buzilishini tushuniladi.

Stilizatsiya —tabiatdagi o'simlik, xayvon, odam va boshqalarni naqqosh tamonidan umumlashtirib tasvirlanishidir.

Naqsh kompozitsiyasi chizishda quyidagilarga rioya qilishni unutmaslik kerak.

1. Tanob yoki novda tagidan gul, guncha. bargni qoldirib tasvirlash mumkin emas;
2. Tanob bilan novdani farqlab tasvirlash;
3. Taqsimda ortiqcha nusxa chiziq quymaslik;
4. Tanobdan xech qachon gul, novda, guncha kabilar usib chiqmasligi;
5. Naqsh elementlarining nisbatini saqlash;
6. Naqsh chiziladigan yuzaga moslab naqsh kompozitsiyasini tuzish;
7. Naqsh orasidagi zamin bushliqlari nisbatini saqlash va xokazolarni sanab o'tishimiz mumkin.

Suzimiz oxirida shuni aytib o'tishimiz joizki, biz amaliy san'at o'qituvchilarining maqsadi talaba yoshlarning mustaqil O'zbekiston sharoitida

shaxsning xar tomonlama barkamol rivojlanishi uchun maxalliy manbalardan samarali foydalanishni keng yulga quyish orqali ularni yuqori malakali mutaxassis bulishlarini va yuksak didli, ona vatanga sadoqat, milliy hamda jaxon xalqlari san'atini mukammal biladigan, ota-bobolarimiz yaratib qoldirgan o'tmish madaniyatimizni sevib qadrlay oladigan insonlar bo'lib etishishlarini ta'minlashdir.

Xalq, amaliy san'ati bo'yicha berilayotgan bilimlar o'quvchilarda estetik didni o'stirish bilan bir qatorda, ularda borliqni idrok etish madaniyatini va ijobiy munosabatini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quvchilarga dekorativ amaliy san'at asarlarining estetik mohiyatini tushunib etishga kumaklashadi.

Maktabda 1-7-sinflarda tasviriy san'at va 8-9-sinflarda chizmachilik fanidan dar utish jarayonida o'quvchilarni mustaqil ijodiy ishlashga jalb etish katta ahamiyatga ega. Kurgazmali qurollar yasash al'bomlar, yog'och o'ymakorligi namunalari, ganch o'ymakorligi, naqsh, loydan yasalgan kuza, oftoba, yog'ochga uyilib yasalgan portret kabi mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy fantaziyasini rivojlantirishda juda foydalidir. Buning uchun maktabda xalq, amaliy san'atining milliy naqshlik ganch uymakorligi va yog'och uymakorligi kabi turlaridan to'garaklar tashkil etish lozim.

Tutaraklarda o'quvchilarga o'zbek, O'rta Osiyo va chet el dekorativ san'ati elementlari va ularni amalda qo'llash yullari o'rgatilsa va shu soha buyicha ijod qiladigan taniqli rassomlar asarlari bilan tanishtirilib borilsa maqsadga muvofiq, bo'ladi. Kasb-hunarga oid mashg'ulotlarda o'quvchilar yog'ochga naqsh solish, barg va gullardan naqshlar tuzish, o'simlik va hayvonlarning tasviriga naqsh berib ishlash kabi ishlarni bajaradilar.

To'garak mashg'ulotlarida Q.Qosimovning "Naqqoshlik", S. Bulatovning "Ganchkorlik" kabi qo'llanma va darsliklaridan foydalanish mumkin.

Ushbu metodik qullanmalar o'zbek xalq, dekorativ amaliy san'atining eng qadimiy turlaridan naqqoshlik, yog'och uymakorligi hamda ganch uymakorligiga bag'ishlangan bulib, unda naqqoshlik va uymakorlik san'atining tarixi, rivojlanishi, bu kasblarni yoshlarga singdirish usullari ommabop tarzda bayon qilingan. Shuningdek, metodik tavsiyalar va illyustratsiya materiallari to'garak a'zolariga xalk, amaliy san'atining jozibasini anglatish va ularda ana shu san'at sirlarini urg'anishga qiziqish uyg'otish imkoniyatini beradi.

Mashg'ulotlarning asosiy maqsadi o'quvchilarga xalq naqqoshlari asarlari asosida sodda tuzilgan oddiy elementlarni o'rgatishdan, turli naqsh va boshqa

amaliy san'at turlari namunalari bilan tanishtirishdan iborat. Xalq, amaliy san'at namunalarini chizdirib urgatishda o'qituvchi quyidagi usullardan foydalanishi mumkin.

1. Dekorativ san'at namunalari kompozitsiyasini, shaklini, rangini va elementlarini chuqur taxlil qilish va ularni uzgartirmasdan chizish.
2. Namunalarning bir nechta variantlarini ishlash.
3. Namunalardagi ayrim elementlarni olib ulardan mustaqil kompozitsiyalar chizish.
4. Namunalarni soddalashtirish.

Xalq, amaliy san'ati namunalarini taxlil qilishda o'qituvchi o'quvchilarning e'tiborini naqshlarni gullardan, barglardan, sabzovotlardan, mevalardan, qushlardan, hayvonlardan, umuman tabiatdagi narsalardan tuzilganligi, ranglarning yorqinligi yoki tugallanmaganligiga qaratadi va xalq amaliy san'atidan foydalanishda quyidagilarga rioya qilishni o'quvchilarga urgatish lozim:

1. Kompozitsiya shakllarining simmetriya tarzida joylashtirilishi.
2. Naqshda shakl va detallarning ko'p bulmasligi.
3. Tasvirlash usullarining ko'p va murakkab bulmasligi.

Borliqni idrok etish darslarida, darsdan tashqari vaqtda tabiatga uyushtirilgan ekskursiyada o'quvchilar diqqatini qushlar, gullar, mevalar va boshqalarning shakllariga, ranglariga, tuzilishlariga va nisbatlariga qaratish kerak.

O'quvchilar gullar va barglardan gerbariyalar to'playdilar. Tuplangan gerbariyalar asosida maktabda stilizatsiya qilish mashg'ulotlari o'tkaziladi. Bu narsalar har doim biron-bir buyumni bezatish uchun muljalni, shuningdek naqsh ishlashda qaysi buyumni bezatish lozimligini bilish muhimligini anglatadi.

Oddiy naqsh namunalarini qalamda va rangda ishlashdan oldin o'quvchilarni naqqoshlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va xom ashyolar bilan tanishtiriladi. Ustaxonalarni tashkil etish, jihozlash, ish qurollari, qadimiy va zamonaviy ashyolar bilan ishlash uslubi haqida tushunchalar beriladi. Qog'oz turlari, vatman, yarim vatman, qizil, ko'k va oq o'chirg'ichlar, qalam turlari, chizg'ichlar, pargor va

mo'yqalamlar, bo'yoqlar, politra, ish korjomasi va boshqalar bilan tanishtiriladi. Qalamni to'g'ri ochish va katak daftarda har xil qalinlikda to'g'ri chiziqlar chizish mashqlari bajariladi. O'simliksimon va ramziy naqsh belgilarini chizish geometriyasi, naqsh va uning turlari haqida tushunchalar beriladi. Naqsh belgilarini tabiatdan qayta ishlab olish va kompozitsiyalar hosil qilish, naqsh kompozitsiyasida kompanovka, simmetriya va assimetriya, ritm, stilizatsiya, shakllarni teng qismlarga bo'lish, dinamika haqida o'quvchilarga to'liq tushunchalar beriladi. Har xil chiziqlarni kuz bilan chamalab teng bo'laklarga bo'lishni va ularni chizishni o'rganish yo'llari tushuntiriladi. O'simliksimon naqsh belgilari barglar, gullar, g'uncha, marg'ula, tanob, shukufta, shuningdek, ramziy naqsh belgilari va boshqalarni chizishni mashq qilishadi.

Oddiy naqsh namunalarini qalamda chizish. Kompozitsiya asoslari va dastlabki tushunchasini to'liq uzlashtirgan o'quvchi endi oddiy naqsh namunalarini hosil qilish geometriyasi va ularni chizish qonun-qoidalari bilan tanishadi. Oddiy naqsh namunalari quyidagi bosqichda qalamda bajariladi. 1-mashq. Bodom gul (1-gul), 2-mashq. Yak raftor (2-gul), 3-mashq. Bargli raftor islimi (3-gul), 4-mashq. Bargli islimi (4-gul), 5-mashq. Aylana shukuftli islimi (5-gul), 6-mashq. Mehrob islimi (6-gul), 7-mashq. Islimi bofta (7-gul), 8-mashq. Qo'sh mehrobli islimi (8-gul), 9-mashq. Patnisgul islimi (9-gul), 10-mashq. Islimi shukufta (10-gul). Oddiy naqsh namunalarini katak daftarda qalamda chizish mashq qilingandan so'ng albomga chiziladi.

Shakllarni teng qismlarga bo'lish. Shakllarni teng qismlarga bo'lish xuddi markaz topish kabi katta ahamiyatga egadir. Chunki shakllar to'g'ri qilib teng qismlarga bo'linsa, kompozitsiyadagi simmetriya, ritm buzilmay shakl nafis bir tekis harakatda chiroyli chiqadi. Bundan tashqari chizilayotgan naqsh yoki shaklning bir qismi chizilib, qolgan qismiga esa nusxa ko'chirish orqali chiziladi.

Kompozitsiyada marom (ritm). Marom tartibi umumiy yoki shaklning qurilishi boshqa munosabatlardan ham tarkib topishi mumkin. (Nyuan, kontrast) oddiy va irratsional, shuningdek mutanosib munosabatlar belgilari, aniqroq qilib aytganda

marom, shakl va ular oralig'ining birin-ketin chiziqli joylashuvi o'rnida yuzaga keladi. Buyumlarning umumiylikda jo'ngina maromlik joylashuvining oddiy ko'rinishi o'lchamda tartibdir. Shakllar qurilishining maromiy tartibi qismlarning tengligini ifoda qiladi (yoki ularning tashqi jihat xususiyatlari yoki joylashuv mutanosibligi). Masalan, dumaloq yoki uchburchak yuzalarning hajmi tomonlari bir-biriga o'xshaydi va dumaloq shar markazidan bir xil masofada joylashtirilgan, uchburchakda esa qurilishiga binoan amalga oshirilgan. Marom munosabat o'rnida yuzaga kelib, birinchidan, maromli qatorlarning turli ko'rinishlarida shaklning jamlanish umumiyligi buyumlarning bir qismidan tarkib topib, ikkinchidan, shaklning maromli qurilishining turli ko'rinishlarida buyumning butunligi yoki bir bo'lagi, shaklni tashkil qiluvchi qismlardan tarkib topishi tartibini tashkil etadi. Birinchi yo'nalishda mustaqil ko'rinishga ega buyumlarning nogahon bog'liqligini ilg'aymiz, ikkinchi yo'nalishda hajm va joylashish o'rni jihatidagi qismlarining uzgarishini unchalik bilinmaydigan, sezilmaydigan to'g'riburchak tomonlaridan bilish mumkin. Sodda qilib aytganda, ritm - naqsh belgilarini ma'lum masofada bir tekis takrorlanib kelishi bo'lib, naqshdagi harakatlarning uzluksiz ko'rinishini ta'minlaydi.

Mutanosiblik-proporsiya. Kompozitsiyalar tuzishda keng atroflilik va mutanosiblik uslublarining qo'llanilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ularni yagona va yaxlitlikka jamlash belgilar muqobilligi (tomon, balandlik) bilan bog'liq bo'ladi. Belgilar jussasi va shaklning mutanosibligi jismning sifat tomonlari, uning qimmatini belgilovchi vazifalarini ifodalashi mumkin. Masalan, qog'ozning hajmi va mutanosibligi (30x20 sm) talabalarga monand, eng muhim tanlov natijasida shakllangan. Birinchidan, bunday hajmdagi varaq aniq ko'rinish maydonidadir. Ikkinchidan, unda shunday matn hajmi joylashadiki, u yozishmalarning odatiy tus olgan shakllarini jamlashga mo'ljallangan. Uchinchidan, qog'ozning yuqoriga qaratilgan qismi mashinkalashning davomiyligiga mos keladi. Bundan tashqari qog'ozning tuzilishi o'qish va olib qo'yish uchun qulay va papka-portfellarda tashishga moslashtirilgan. Aytish mumkinki, uning hajm mutanosibligi yaxshi

o'ylab topilgan bo'lib, unga o'rganib qolganmiz. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, asbob yoki mahsulot vazifasi ma'lum bir matematik munosabatlarda ko'rinadi, u mutanosib qurilmada aks etib, ma'lum bir estetik ta'sir vositasiga egadir. Shuning uchun mutanosiblik shakllarini uning mazmunidan ajratish mumkin emas (jism yoki narsalarning uzaro belgisi). Buyumning biror o'lchami - umum tizimining tarkibiy qismi yoki monandligini shakllanish shartlariga binoan yuzaga keladi hamda turlicha sodda ratsional va mutanosib munosabatlarni qamraydi. Mutanosiblikni solishtirish chog'ida kuzimizda uz nigohiy harakati bilan uch o'qli oichamni ilg'aydi. Solishtirishning bu ko'rinishida buyum qismining faqat shakl va ulug'vorligini ilg'amay, ularning matematik bog'iqligini, moddalarning vaqtli farqi aniqlanadi. Ko'p qismli shakllarning mutanosib qurilish tarkibini uzlashtirar ekanmiz, kuzimiz bir vaqtning uzida shakllar turlichaligini, ma'lum birgalikda ularning joylashishi, fanlarning kelib chiqish tizimi, farqni vaqt jihatidan belgilarining davomiyligini, uning birgalikda joylashish aniqligini, narsa xususiyatidan chiqishini o'rganadi. Shunga binoan inson narsa-buyumlarning ishlatilish farqini anglaydi. Buyumlarning murakkablik shakllariga ko'ra ularning ko'rinishini baholash chog'ida har tomonlama xulosalanib yoki ayrim xususiyatlariga ko'ra foydalaniladi. Oddiy shakllarning soyasini anglaganimizda, masalan, to'g'ri to'rtburchakli, to'g'ri burchakli yoki ularga yaqinroq shakl solishtirilganda, ularning farqlari, munosabati quyidagicha yuzaga keladi:

- shakllarning chegaralari uning umum ko'rinish mezonini munosabatini eslash hisobiga qabul qilinadi (farq);
- shakl hajmi boshqa belgiga yoki qog'ozga munosabatiga e'tiboran o'rnatiladi (sodda munosabat);
- tomonlarning munosabati o'rnatiladi, ularning kattaligi va rivojlanishi ikki o'qlariga ko'ra o'lchanadi;
- bir xil yoki yaqin belgilar topiladi, tomonlar yoki qirralar;

Buyumning hamma tomonlarining baravarlik munosabatiga ko'ra belgilanib, shular natijasida yuzaga kelgan chizma tasvir konturga ko'ra (metr yoki marom).

Tabiiyki, qabul qilish jarayoni shu jihatlarga ko'ra davomiyligi bilan qaror topadi. Ammo birinchi darajada buyum o'rganilib, rasmning soyasi yaqqol kuzga tashlanadigan tomonlar bo'rtib, turli munosabatlariga ko'ra shakllanadi. Bu murakkabroq shakllarga ham farqlanadi. Masalan, turarjoy binosini ajratadigan umumsoya (tomonlari munosabati) va oynaning turi misoliga olish mumkin.

Kontrast (farq). Kontrast mahsulot detallari xususiyatini muqobillashtiruvchi vosita bo'lib, tarkiblar badiiy qimmatini funksional mosligiga ta'sir qiluvchi kompozitsiya shartiga ko'ra yuzaga keladi. Kontrast solishtirishning soddaroq, keskin farqlarini, tashqi ko'rinishdagi uziga xos belgilarni aniqlaydi. Kontrast xususiyatlarini baholashda buyumlarni solishtirish jarayonida kattaligi, joylashish ko'rinishiga ko'ra tasvirlanadigan shakl o'rnida taqdim qilinishi mumkin. Solishtirish jarayonining ayrim o'lchamida kontrast kuz harakati bilan aniqlanadi. To'g'ri chiziqqa yaqini maydoniga ko'ra solishtirishda hajmi sikl umumiy farqlovchi natija bo'lib ko'rinadi. Birinchi navbatda, tasvirning umumlovchi natijasi bo'lib yuzaga keladi. Shakllarni aniqlashda kontrastli munosabat tasvir chiziqlarini nigoj bilan solishtirish natijasida ta'sir etadi, rang farqini ajratish tanlangan joy xususiyatiga ko'ra ajrim bo'ladi.

Farqlanish munosabatlari tashqi ehtiyojlarning barcha belgilariga ko'ra solishtirilganda birinchi taassurot boshqa munosabatlardan farq qiladi. Kontrast belgisi yorug'lik kuzimizga tushishi bilan aniqlanadi. Qiyoslanuvchi ranglar yoritilgandan so'ng, elektr uchquni yorug'ligi ta'siri natijasida seziladi. Jilo buyumlarning tashqi ko'rinishi va kattaligi uning yaxshi xususiyatlaridan biridir va rangi, chizmatasvir, jussasi joylashishidan yuzaga keladi. Bu bir xil zaruratli buyumlarni bilishda ko'pincha qo'l keladi. Jilo - solishtirishning murakkablashgan jarayoni bo'lib, kuzning bir qator harakatlaridan tashkil topadi. Kattalikning jiloli xususiyati shakli, yuzi, kuz harakatlari umumiydan yuzaga kelgan arzimagan farqlari bilan ajralib turadi. Ranglar orqali jilolash, arzimagan quzg'atishlar orqali ham his etiladi. Murakkabroq jiloli shakllar yuzaga kelishi, shu jumladan, o'rnashganligi va uning qurilishidagi egallangan o'rni ham yuzaga keladi.

Nyuans. Solishtirilayotgan jismlarning katta-kichikligi, chizmatasviri, rangi, hajmi, joylashishi, tashqi ko'rinishidagi yaqin xususiyatlar nyuans deyiladi. Bu bir xil turdagi jismlar va qismlar orasidagi nozik belgilarni ajratish imkonini beradi. Nyuans kuzning bir qator takroriy harakatidan iborat ancha murakkab solishtirish jarayonidir. Jismning nyuans xususiyati buyumning katta-kichikligi, shakli, sathi va tavsifi tizimidagi arziyas farq, kuzning takror harakatidan sinchkovlik bilan umumlikda seziladi. Ranglardagi nyuans olinadigan sinchkovlik ta'siri ostida arziyas farqni sezishda bilinadi. Shakldagi nyuansni sezish, shu jumladan, uning hajmiy va fazoviy qurilish nyuans ham eng murakkab hisoblanadi.

Oddiy naqsh namunalarini bo'yash

Rangshunoslik va bo'yoqlar bilan ishlash. O'quvchilar bo'yoq va uning turlari bilan tanishtiriladi. Qadimda bo'yoq tayyorlash usuli pigment, akvarel, guash, mineral bo'yoq va uning turlari, moy bo'yoqlarni ishlatish va uning uziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi. Mo'yqalam turlari va ularni uz o'rnida ishlata olish yo'llari, mola, obi va siyohqalamlarni uz o'rnida ishlatish o'rgatiladi. Guashda oddiy mashqlar bajariladi. Ranglarni turlash, yuzani tekis bo'yashni yaxshilab o'rganish, albomda bir qancha mashqlar bajarish, oddiy naqsh namunalarini bo'yash usullari, ranglarning uyg'unligi koloriti haqida tushuncha beriladi. Ranglarning har bir naqsh kompozitsiyasiga moslab tanlanishi, naqqoshlar Yoqubjon Raufov, Abdulla Boltaev, Olimjon Qosimov, Jalil Hakimov, Saidmahmud Norquziev, Anvar Ilhomovlar ijodi va naqshlarining bo'yalishi bilan tanishtiriladi. Naqshlarning yaxshi bo'yalmaslik sabablari hamda naqsh namunalarini bo'yash bosqichlari bilan to'liq tanishtiriladi. Naqsh zaminini bo'yash, uning bandlari va gullarini rang berib turlash, barg va gullariga targ'il berish, agar naqshda oq band bo'lsa, ularni tortish, naqshning obisini tortish bilan tanishtiriladi. Avvalgi mashg'ulotlarda chizgan naqshlar namunalari zamini ranglarda ishlanadi. Bajarilgan ishlar yakunlanadi, o'quvchilarga kelgusida mustaqil ishlashga maslahatlar va ko'rsatmalar beriladi.

Oddiy naqsh namunalarining band, gullarini bo'yash va ularga targ'il berish. O'quvchilarga oddiy naqsh namunalarini band va gullariga moslab rang tayyorlash va ularni bo'yash o'rgatiladi. Ranglarni uyg'un va monand chiqishi kuzatibboriladi. Oddiy naqsh namunalari bodom guli, yak raftor, bargli raftor islimi, bargli islimi, aylana shukufta islimi, mehrob islimi, islimi bofta, qo'sh mehrobli islimi, patnisgul islimi va shkiftli islimilarning band va gullarini bo'yash o'rgatiladi. Targ'il pardozi berishning bir turi ekani haqida tushunchalar beriladi. Targ'il gul va barglarning uzidagi soyasi, targ'il berishdagi dastlabki mashqlar, turlari va uziga xos tomonlari o'rgatiladi. Albom varag'ida targ'il berishning boshlang'ich, sodda mashqlari, oddiy naqsh namunalarining gullariga, barglariga va g'unchalariga targ'il berish amaliy mashqlarda bajariladi.

Oddiy naqsh namunalarining oq bandlar va obisini tortish. Naqsh namunalarining oq bandlari va uning turlari, oq bandlar tortishning uziga xos qonun-qoidalar bilan tanishish, oddiy naqsh namunalarining oq bandlarini tortish bosqichlarini kuzatib borish, oddiy naqsh namunalariga oq band tortish, obi va uning turlari, obi tortishning qonun-qoidalarini o'rganiladi. Obi uchun koller tayyorlash, ustalarning ishlarini tahlil qilish, oddiy naqsh namunalarining obisini tortishni mashq qilish.

Aylana va boshqa ko'p burchak yuzalariga naqsh yoki miniatura kompozitsiyasi ishlash

Kompozitsiya suzi lotincha «composito» suzidan olingan bo'lib, tuzish, birlashtirish, bog'lash, turli xil belgilarni bir butun yaxlitlikka birlashtirish va biron-bir g'oyani madh etish ma'nosini bildiradi. Kompozitsiya - san'atning barcha yo'nalishida qo'llaniladi. Dizayn va amaliy san'atda u loyihalash deb ataladi. Musavvir turli shakl va manzaralarni bir-biriga nisbatan solishtirib va joylashtirib nafis san'at asarini yaratadi. Kompozitsiyalar yaratish uchun, albatta, kompanovkaga, simmetriya va assimetriyaga, ritm, stilizatsiya, markazni topish, shakllarni to'g'ri, teng taqsimlashga, yorug'liklarni nur va soyaga, rangshunoslik qonun va qoidasiga to'liq rioya qilish lozim. Tabiatda va hayotimizda

kompozitsiyaning roli, naqsh va miniaturada davriy takrorlanish, bezakning dinamikligi, simmetrikligi va markazini topish, naqshlarning erkinligi, nafisligi, ranglar uyg'unligi kabilarni aniqlash haqida o'quvchilarga tushunchalar beriladi. Kompozitsiya tuzish metodikasr, kompozitsiyada naqsh belgilaridan foydalanish yo'llari, tabiat va voqelikni kompozitsiyada aks ettirish, kompozitsiyaga nom qo'yish, me'moriy yodgorliklarga borish va u erda ustalarning naqsh kompozitsiyasini tahlil qilish kabi bosqichlarni amalda bajaradilar. Oddiy naqsh namunalari qalamda chizish va ranglarda bo'yash vazifalarini to'liq bajargan o'quvchi, keyingi bosqichdagi vazifa aylana va boshqa ko'p burchak yuzalariga naqsh yoki miniaturalar kompozitsiyalarini ishlash bosqichiga o'tadi. O'quvchi oldingi darslarda olgan bilimi asosida, oddiy naqsh namunalari bodom guli, islimi yak raftor, bargli raftor islimi, bargli islimi, aylana shukufta islimi, mehrob islimi, islimi bofta, qo'sh mehrobli islimi, islimi patnigul, islimi shukufta naqsh namunalari ishtirokida mustaqil yangi kompozitsiya chizadilar. Uch, to'rt va ko'p burchak, aylana shakliga qonun-qoidalariga asosan o'quvchilar oddiy va murakkab naqsh kompozitsiya loyihalarini yaratibgina qolmay, sodda ko'rinishdagi miniatura kompozitsiyalarini ham yaratadilar.

Teng yonli uchburchak. Teng tomonli uchburchakni chizish uchun dastlab pargor yordamida doira shaklini chizib, uni markaziy nuqtasidan o'q chiziq o'tkazilib, doira shakli uchga bo'linib nuqtalari bir-biriga tutashtiriladi va markazi aniqlanadi. Markazdan uchburchak tomonlarining o'rta nuqtasi topilib burchak nuqtasi bilan tutashtiriladi va uch bo'lakka bo'linadi. Hosil bo'lgan maydonchaga islimiy naqsh yoki miniatura kompozitsiyasi chiziladi. Kompozitsiya o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriqqa mos bo'lishi kerak. Uchburchak ichidagi naqsh, assimetrik, simmetrik naqshlarni chizish bosqichlarini o'rganish, naqshdagi tabiiylik, ularga uziga xos ranglar berishni o'rganish, o'simliksimon naqsh belgilaridan foydalanib, uchburchak naqsh kompozitsiyalarini tuzish va ularni bo'yash kabi amallar bajariladi.

To'rtburchak ichidagi naqsh kompozitsiyasini tuzish va bo'yash. Eng awalo o'qituvchi tomonidan berilgan topshiriq asosida amalga oshiriladi. Teng tomonli to'rtburchakning ramziy ma'nosi dunyoning to'rt tomoni, osmon, saroy, quyosh, farzand, abadiy ishonch, xotijamlik, mustahkamlik ma'nosini bildiradi. To'rtburchak shakllari hajmidan kelib chiqib doira chiziladi va uni to'rt nuqtaga bo'lib bir-biri bilan nuqtalari tutashtiriladi. Tutashtirilish natijasida markaziy nuqtasi belgilanib to'rt bo'lakka bo'linadi. Har bir bo'lagiga band kurtak, g'uncha, gul, bofta, shkifta, banob va boshqa bo'laklardan foydalanib oddiy va murakkab ko'rinishda kompozitsiyalar chiziladi. Teng yonli to'rtburchak tomonlarining hajmi 5-10 sm bo'lishi hamda teng yonli kvadrat ichiga naqsh chizishda kvadrat o'q chiziqlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. To'rtburchak ichiga naqsh chizishda berilgan hajmning burchaklarini topishda doira aylana shaklidan foydalaniladi. To'rtburchak yuzasiga moslab naqsh chiziladigan kompozitsiyalar va ularning turlari haqida umumiy tushuncha berish, uni tuzish qonun-qoidalari, naqsh belgilari yordamida to'rtburchak yuzasidagi naqsh kompozitsiyasini tuzish, ustalarning ishlarini tahlil qilish, tuzilgan kompozitsiyani bo'yash va unga parдоз berish o'rgatiladi. To'rtburchak ichida naqsh kompozitsiyasini tuzish va bo'yashni mashq qiladilar.

Aylana ichida naqsh tuzish va bo'yash. O'quvchilarga aylana ichiga naqsh kompozitsiyalar chizish va ularning turlari haqida ma'lumotlar beriladi. Unga moslab naqsh kompozitsiyasini chizish yoilari va ularning uziga moslab bo'yash usuli o'rgatiladi.

Geometrik naqshlar. Gulli girih. Girih va uning tarixi, girih kompozitsiya ustalari haqida ma'lumotlar beriladi. Girih turlari, belgilari, to'rtburchaklar, uchburchaklar, ko'pburchaklar va egri chiziqlar, girih belgilaridan kompozitsiyalar tuzish yo'llari, girih kompozitsiyalarini ishlash va bo'yash yo'llari tushuntiriladi. Gulli girih va uning turlari, gulli girih tuzish bosqichlari, har xil kompozitsiyalar tuzish va bo'yash, gulli girih kompozitsiyalarini tuzish va ularni bo'yash bosqichlari o'quvchilarga o'rgatiladi.

Munabbat naqshi, turunj, namoyon va uning turlari. Munabbat to'rt tomonga takrorlanadigan naqshi va ularning turlari o'rganiladi. Naqqosh ustalarning munabbat naqshlari tahlil qilinadi. Geometrik, gulli girih va o'simliksimon munabbat naqshlar chizish o'rgatiladi. Munabbat naqsh tuzish bosqichlari va ularni bo'yash yo'llarini o'rganish, munabbat naqsh kompozitsiyalari tuzish va ularni bo'yash haqida o'quvchilarga tushunchalar beriladi.

Turunj haqida tushuncha berish. Turunj Markaziy Osiyoda uziga xos ko'rinishga va mazmunga ega bo'lgan qadimiy naqsh turidir. O'quvchilarga turunj va uning turlari, geometrik gulli girihli va o'simliksimon turunjlar, turunj naqsh kompozitsiyasini tuzish va uni bo'yash haqida ma'lumotlar beriladi.

Namoyon. Uning lug'aviy ma'nosi hamda kelib chiqish tarixi, namoyon turlari, o'simliksimon, gulli girihli, geometrik va boshqa namoyonlar, murakkab namoyon kompozitsiyasini tuzish va uni bo'yashni o'rganish qoidalari o'rgatiladi.

Yog'och o'ymakorlik to'garaklarini tashkil etish

Xalq amaliy san'ati buyicha olib borilayotgan to'garaklardagi o'qitish, tarbiya ishlari hozirgi zamon talabi darajasida emasligi hammaga ayon. Buning birinchi sababi maxsus yagona dasturlar, qullanmalar, metodik kursatmalar va tegishli mutaxassislar yuqligi hamda etishmasligidir. X,ozirda xalq amaliy san'ati turlaridan biri bo'lgan yog'och o'ymakorligidan maktablarda, pionerlar uyi, saroylaridagi klublar va to'garaklarda olib borilmoqda. Lekin ular uchun hozirgi zamon talabiga javob bera oladigan yagona dastur yuqligi to'garak rahbarlariga jiddiy qiyinchiliklarni tug'dirmoqda. SHularni e'tiborga olib ilg'or tajribalarga suyangan holda yog'och o'ymakorligi buyicha quyidagi dastur tuzildi.

Yog'och o'ymakorligi to'garak mashg'ulotlari o'quvchilarning siyosiy, g'oyaviy, mehnatga muhabbat va estetik ruhda tarbiyalash, atrofdagi voqea va olishga hamda ularga to'g'ri munosabatda bulishga o'rgatadi. O'quvchilarning izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirish, ularning san'atga bulgan qiziquvchanligini kuchaytirish, o'quvchilarning yog'och o'ymakorligi san'ati va

uning turlari buyicha dor xil kompozitsiyalar chizish va ularni amalga oshira olish malakalarini shakllantiradi.

To'garak dasturida hunarga o'rgatish ta'lim-tarbiya ishlaridan ajralmagan x,olda olib boriladi.

To'garak mashg'ulotlari o'quvchilarning yoshi, qobiliyati va bilim darajasini hisobga olgan holda uch qismga bulib o'rgatiladi.

- Kichik gruppaga (IV—VI sinf) o'quvchilari uchun.
- O'rta gruppaga (VI—VII sinf) o'quvchilari uchun.
- Katta gruppaga (VIII—XI sinf) o'quvchilari uchun.

Yog'och o'ymakorligi mashg'ulotlari utkaziladigan ustaxona asosan, shu san'at ixtisosligidan kelib chiqib, uning murakkabligini hisobga olgan holda ikki xonadan iborat bo'lishi kerak. Birinchi xonada badiiy ijodiy o'qitish, naqsh kompozitsiyalarining xomaki nusxalarini chizish uchun alohida xona va tayyorgarlik ishlari, ya'ni duradgorlik ishlari uchun ikkinchi xona bo'lishi kerak. Bu xonada dostgoh (verstak)lar, asboblari uchun shkaflar bulib, arralash, randalash, har xil shiftlar ochish, buyumlarni yigish, ularni jilvirlash va boshqa ishlar bajariladi.

Bir yillik mashg'ulotlar uchun kichik gruppaga 144 soat, o'rta gruppaga 216 soat, katta gruppaga 288 soat ajratilgan, o'quvchilarning yozgi ta'til vahtlari hisobga olinmaydi.

To'garak mashg'ulotlari haftada ikki yoki **uch** marta utkazishga ruxsat etiladi. To'garakda 12— 15 ta o'quvchi bulgani ma'qul. **Sulaymon** Xujaev 1866 yili Toshkentdagi naqsh soluvchilar va duradgorlar yashaydigan Suzuk ota mahallasidagi duradgor oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Nasrulloxuja panjara va duradgorlikni ota-bobosidan meros qilib olgan edi. Sulaymon yoshligidanok yog'och o'ymakorligiga qiziqar, nozik san'at sirlarini urganishga x,arakat kilar edi. U diniy maktabda o'qib yurgan kezlarida otasiga yordam berardi. Keyinchalik u 17 yoshida usta Iskander Mirzayokubov ustaxonasida ishladi.

U 1891 yilda, usha davrda yog'och o'ymakorligi pargori ustalaridan biri Toshpulat Ayubxujaevga shogird tushib yog'och o'ymakorligining sir- asrorlarini urgandi. Pargori bu yog'och o'ymakorligini bir turi bo'lib, o'ymaning chuqurligi 1—1,5 mm dan oshmaydi. Bu naqshlarni «o'ymakor pargori» yoki «uyma pargor» bilan, ya'ni sirkul bilan chizilgan naqshni o'yib ishlash deyiladi.

Sulaymon ustozini hurmat qilar, qiyinchiliklarni sabr-chidam hamda o'ta mehnatsevarligi bilan yengib, haqiqiy usta bulishga astoydil harakat qilardi. Keksa ustoz Toshpulat Ayubxujaev vafot etgach, uning san'atini davom ettirdi. Ustozdan esdalik bulib qolgan hamma asboblari yordamida Sulaymon uzi mustaqil juda kup duradgorlik ishlari derazalar, eshiklar, darpardalar yasadi.

Sulaymon Xujaev asta-sekin har xil buyurtmalar olib bajara boshladi. U ko'pincha duradgorlik ishlari bilan shug'ullanar, ya'ni eshik, rom, xontaxta va boshqalar yasardi. Uning ijodiy ishini rivoj topishida rafiqasi SHarofat Otaxujaeva yordam berdi. SHarofat Otaxujaeva uzi ham yog'och o'ymakorligiga qizi qar edi, chunki uning otasi ham yog'och uymakor usta bo'lgan edi. Usha vaqtlarda, ya'ni XIX asrning boshlarida olti, sakkiz, qirrali xontaxtalar mayda buyumlar ishlab chiqarishga ehtiyoj juda katta edi. Usta yasagan ishlarini mohirlik bilan bejirim qilib bezar edi.

S. Xujaev tojik, fors, turk va arab tillarini yaxshi bilar juda kup kitoblar mutolaa qilar edi. U sayohat qilishni yoqtirar edi. Usta 1909 yili Turkiyaga va Arabistonga bordi. Makkani ziyorat qilish bilan birga chet ellardagi xalqlarni hayoti va san'ati bilan tanishishga harakat qildi.

1913 yili Toshkentdagi rus duradgorlari bilan tanishdi va ular maslahati bilan o'zining naqshlangan qush qafasi bilan Sankt-Peterburgdagi Butunrossiya kasblari kurgazmasida qatnashdi. Ana shu qilgan ajoyib ishlari uchun «Za polezniyi trudi» bronza medali va diplom bilan taqdirlandi.

III BOB. Xalq hunarmandchiligi misolida kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatishning shakl va yo'llari.

3.1. Kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatishga oid tajriba – sinov ishlarini tashkil etish.

Tadqiqotimizning ilmiy farazini isbotlash uchun biz o'rgangan va tahlil qilgan manbalarimiz asosida kollejlarda tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Asosan xalq hunarmandchiligini kollej o'quvchilari tushunishi, tasviriy va amaliy san'atni o'rganishda pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini sinovdan o'tkazib, natijalarni aniqladik.

Buning uchun obekt sifatida Samarqand shahar qurilish va milliy hunarmandchilik kasb-hunar kollejidagi amaliy san'at darslari va darsdan tashqari olib boriladigan ishlar hamda 1- son pedagogika kasb-hunar kolleji va Sam.DU "Amaliy san'at yo'nalishi" talabalarini o'rganish bo'ldi. Olib borilgan ishlarimizda avvalo fan dasturlari va o'qituvchilar dars ishlanmalarini o'rgandik. Milliy hunarmandchilikdan mutaxassis o'qituvchilar J. Udaev, Barnoyevlarni 1-son pedagogika kollejidan O.Xo'jamqulova va Ya. Norbekovalarni tajriba sinovini olib borishga rahbar sifatida belgilab oldim. Shundan oldinroq qaysi dars mashg'ulot mavzularini o'rganish lozimligi aniqlandi va birlamchi o'quvchilar bilan savol javoblar qilindi. Bunga 100dan ortiq o'quvchilar jalb etildi. Milliy hunarmandchilikka doir mavzularni asosan 4 soat misolida belgilab oldik.

1. O'zbek xalq amaliy san'ati tarixini o'rganish 2soat

2. Zamonaviy hunarmandchilik va amaliy san'at rivoji 2 soat

Bu keltirilgan mavzular asosida ishimizning yo'nalishi belgilandi va barcha muammolar oldingi kuzatuv, o'rganuvlar bilan aniqlandi. Bu haqida oldingi bob va bandlarga qisman aytib o'tganmiz.

Shular asosida o'quvchilar tushunchasini aniqlash mezonini ham aniqladik.

Ya'ni o'quvchilar milliy hunarmandchilik nima ekanini, qachondan boshlab paydo bo'lganini, tajribali usta – hunarmandlar to'g'risida kerakli ma'lumotlar ega

bo'lishlari lozim. Shuningdek amaliy san'at va uning turlari to'g'risida, ishlanishi timsollarini bilish, elementlarini anglash va bilish shartligi aniqlandi.

Tajriba sinov ishlari maxsus tuzulgan 4 soatlik dastur asosida bosqichma-bosqich olib borildi. Ko'plab tarqatmali va ko'rgazmali materiallar ishlab chiqildi, o'quvchilar bilan bo'lgan dars mashg'ulotlarida ulardan foydalanildi.

1. Shulardan xalq hunarmandchiligiga oid tasviriy va amaliy san'at materiallari sur'atlar savollar bo'lib, o'quvchilarning daslabki bilimlarini aniqlash uchun xizmat qiladi.

2. O'quvchilarning amaliy san'atga oid tushunchalarini aniqlashga xizmat qiladigan savollar.

3 Kolejlarda xalq hunarmandchiligini o'qitishni o'rgatish o'rganish darajasini aniqlashtirishga doir surovnomalar.

4 Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atni o'rganish va qiziqishlarga oid surovnomalar .

5 Dars mashg'ulotlarini yangi pedagogik texnologiyada olib boriladiganlarini sifatini aniqlash.

6. An'anaviy va noan'anaviy darslarda xalq hunarmandchiligi amaliy san'at materiallarining etarli yoki kamligiga doir so'rovnomalar.

Tajriba sinov ishlari borasida maktab kollej o'quvchilari bilan tarbiyaviy jarayon dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar kuzatildi. Ularni olib borish davomida kerakli didaktik materiallar borligi o'rganildi. Huddi shular asosida ta'lim jarayoni kuzatildi.

Xalq hunarmandchiligi amaliy san'at bilan bog'liqligi va o'quvchilar bu to'g'risidagi tushunchalarni shakillantirishda foydalanishni aniqlash uchun 1-2-3-4 so'rovnomalar bir-birini to'ldiradigan qilib tuzilib ularning har biriga 4-5 tadan savollar kiritilgan. Ko'pincha so'rovlar og'zaki tarzda ham so'rab chiqiladi. So'rovnomalar kollej o'quvchilari amaliy san'atida naqqoshlik, ganchkorlik, zarduzlik, zargarlik, o'ymakorlik kabi tushunchalarini aniqlash maqsad qilib olingan edi. Kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha xalq hunarmandchiligidan biz

keltirgan turlarni qisman bilishadi. Bularni grafik tasvirini quyidagicha keltirib o'tganmiz.

Keltirilgan ilmiy farazni isbotlash va kollej o'quvchilarni bilimini aniqlab uni takomillashtirish metodikasi dars ishlanmalarimizda o'z aksini topgan. Biz bunga qo'yilgan vazifalar bo'yicha birlamchi nazorat bilan keyingi ishlarni bajargandan so'ng natijalarni aniqlaymiz. Dars mazmuni bo'yicha xalq hunarmandchiligi amaliy san'at bilan doimiy rivojlanib kelayotgan va uning tasviriy va amaliy san'at darslari jaraonini o'rganildi.

Tajriba – sinov darslarini o'tkazib bo'lganimizdan so'ngi jarayon uni tahlil qilish bo'ldi. Hamma nazorat va tajriba – sinov sinflarida o'quvchilar ishini, bilimni savollar bilan tekshirib ko'rdik. Bunga uning natijalari quyidagicha bo'ldi.

Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atni anglash ko'rsatgichlari.

	O'quvchilarning xalq hunarmandchiligini bilish darajalari	Savollarimizga olingan javoblar					
		1 savol	2 savol	3 savol	4 savol	5 savol	Jami
	Yuqori daraja	19 (%)					
	O'rta daraja	30,3 (%)					
	Past daraja	51,7 (%)					
	Jami	(100)	(100)	(100)	(100)	(100)	

Jadvaldan ma'lum bo'lmoqdaki sinovdan o'tganlarning 17 %i xalq hunarmandchiligini to'g'ri tushunib etganlar, 28 %i amaliy san'at bilan uni bog'lab oladi, ammo ba'zida chalkashliklarga yo'l quyadi. 55% dan ortig'i xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atni biz talab qilgan darajada ajratib bera olmaydi yoki to'liq anglab etmaydi. Bulardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarni asosiy qismi tasviriy va amaliy san'atni xalq hunarmandchiligi misolida yaxshi anglab ola bilish unchalik yaxshi emas ekan.

3.2 Tajriba – sinov ishlarining natijalari va tahlili.

Tatqiqot ishmizning natijalarini bayon qilar ekamiz biz oldimizga qo'yilgan maqsadni amalga oshirish tomonlarini belgilab olganimizdik olib bordik. O'rgangan oldingi bandda ko'rib chiqqanimizda ma'lum bo'lgan ko'pchilik o'quvchilar xalq hunarmandchiligi, tasviriy va amaliy san'at turlarini bir-biriga aralashtirib yuborishlari, san'at asarlarini to'g'ri tariflay olmasligi, qadriyatlar, an'analar bilan bog'lashlarida ko'p xatoliklarga yo'l qo'yishligi nazorat guruhlarida kuzatilgan.

Tadqiqot ishimizda tajriba-sinov guruhida savollarga olingan javoblar ancha ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Tadqiqot ishimizda tajriba-sinov ishlari natijalari quyida jadvalda to'liq ko'rsatilgan.

Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atni kollej o'quvchilarining anglashi, tushunish hamda pedagogik ahamiyatini bilishga doir olingan natijalar taxlili.

2- jadval

Javoblar turi	1-savol						2-savol					
	1-o'tkazish		jami	2-o'tkazish		jami	1-o'tkazish		jami	2o'tkazich		jami
	1-gr	2-gr		1-gr	2-gr		1-gr	2-gr		1-gr	2-gr	
To'g'ri	12	26	38	20	28	48	18	30	48	24	32	56
Noaniq	20	12	32	16	12	28	16	11	27	16	9	25
Noto'g'ri	18	12	30	14	10	24	16	9	25	10	9	19
jami	50	50	100	50	50	100	50	50	100	50	50	100

Javoblar turi	3-savol						4-savol					
	1-o'tkazish		jami	2-o'tkazish		jami	1-o'tkazish		jami	2o'tkazich		jami
	1-gr	2-gr		1-gr	2-gr		1-gr	2-gr		1-gr	2-gr	
To'g'ri	12	26	57	20	28	58	18	30	60	24	32	62
Noaniq	20	12	24	16	12	20	16	11	26	16	9	25
Noto'g'ri	18	12	19	14	10	22	16	9	14	10	9	13
jami	50	50	100	50	50	100	50	50	100	50	50	100

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atni anglash, tushinish, asarlarni bilish mazmuni bilan kollej va maktab o'quvchilarini bilish darajasi tajriba-sinov ishlarimizni olib borish davomida sezilarli oshganligini guvohi bo'ldik.

Biz bu tadqiqotimizni olib borish davomida yuqorida keltirilgan tajriba-sinov materiallari, so'rovnomalar, suxbatlarda turli savollarga berilgan javoblarni tahlilini umumlashtirib tajriba-sinov ishlarida qatnashgan kollej va maktab o'quvchilarini berilgan savollarini va ular orqali qo'yilgan muammolarni o'zlashtirish darajalarini aniqladik. Ushbu o'zlashtirish darajalarini 4-ta asosiy ko'rsatgich darajasida ajratib berdik, a'lo, yaxshi, o'rta va yomon deb baholadik.

Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'atni umumiy mazmunini anglash, tushinish darajasi bo'yicha guruhlariga bo'linishi.

D a r a j a	Tajriba sinovigacha bo'lgani		Tajriba sinovidan so'ngi ko'rinishi	
	O'quvchilar soni	(%) hisobida	O'quvchilar soni	(%) hisobida
A'lo				
Yaxshi				
O'rta				
Yomon				
Jami:	112	100	120	100

Olingan natijalar bizning farazlarimizni tasdiqladi va metodlarimizni samarali ekanligini ko'rsatdi.

Xalq hunarmandchiligi va amaliy san'at masalasiga doir bo'lgan savollarni tajribada sinab ko'rdik va yuqori natijaga erishdik.

Jadvaldagi raqamlarni tajriba-sinovga asoslanib, taqqoslangan holda taxlilini keltirib berilgan.

XULOSA

O'zbek xalqi uzining qadimiy va boy madaniyati bilan butun dunyoga mashhurdir. O'zbekistonning qadimiy yodgorliklari va tuproq osti qismi ulkan tarixiy muzey hisoblanadi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Termiz va boshqa shahardardagi har bir memoriy yodgorligi bir buyuk asar, nodir qo'lyozmalar, xalq amaliy san'ati namunalari bir vaqtlar o'zbek xalqining madaniyati naqadar yuksak bo'lganligidan dalolat beradi. Shu vaqtlari ota-bobolarimiz qurgan binolar, me'morchilik bezaklari, ularning rang-barangligi, geometrik va o'simliksimon naqshlarning kompozitsion tasviri zavq olishga, tarbiyalanishga qaratilgan. Ular orqali uz orzu-umidlarini, muhabbatlarini xalqqa izhor etishga chorlaydi. Asrlar davomida orttirilgan madaniy boyligimiz, xalq amaliy san'atining ayrim turlari, ularning o'ziga xos tomonlari, haqiqiy o'zbekcha, nomlari ishlash texnologiyasi va ularni yaratgan ustalarimizning nomlari asta-sekin unutilib ketish arafasida. Shuning uchun xalqimizning asrlar bo'yi qilgan ijodiy mehnati natijasida yaratilgan tarixiy yodgorliklar va boshqa amaliy san'atini kuz qorachig'idek saqlash vaqti keldi. Ularni qadrlash va foydalanish hozirgi davrimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

Madaniy meros va yuksak badiiylik milliy an'anani rivojlantirishga undan foydalanish, undagi ijodiy amalit uslublarini joriy etish ham kerak. Tabiiy material bilan ishlash, kishilarda ayniqsa, yoshlarda qunt, chidam qat'iyat, xalq amaliy san'atining qiziqarli o'ziga xos turlariga dahldor etish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni g'oyaviy-siyosiy va estetik ruhda tarbiyalashda yuqoridagilar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu yoshlarda guzallikni seza bilishga, san'at asarlarini o'rganishga, ulardan bahra olishga, izlanuvchanlik va yaratuvchanlik qobiliyatlarini oshirishga, amaliy san'atga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish, dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, me'morchiligi o'zbek xalq amaliy bezak san'ati va uning turlari bo'lmish ganchkorlik, zargarlik, kulolchilik, misgarlik, yog'och o'ymakorligi darslarda o'qituvchi barcha imkoniyatlardan

samarali foydalanish kerak. O'z ishlarini rejali tashkil etish va tarbiyaning hamma tarkibiy qismlarini kompleks amalga oshirishga erishishi kerak.

O'zbek xalq amaliy san'ati darslarning samaradorligini oshirish uchun texnika vositalaridan foydalanib videofilm, elektron versiya, elektron darsliklardan namoyish qilish, ilmiy asoslangan dasturlar tuzish, o'quv metodik ko'rgazmalar tayyorlash, ekskursiv tanlovlar, viktorinalar o'tkazish, hozirgi zamon pedagogik-psixologiyasining ilg'or yutuqlariga suyangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, o'quv moddiy bazasini mustahkamlash, mahalliy materiallardan foydalanish, ko'rgazmalar tashkil etish, kabinetlarni zamonaviy jihozlanish, ta'lim-tarbiya masalalarini muvaffaqiyatli hal etish uchun didaktik printsiplar, ya'ni ta'limni tarbiyalovchi printsipti, ilmiylik printsipti, muntazamlik printsipti va ketma-ketlik, onglilik-aktivlik, ko'rgazmalilik, va boshqa printsiplarga rioya qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalq amaliy bezak san'ati asrlar mobaynida ota-bobolarimiz tomonidan kuz qorachig'idek asrab-avaylab kelingan. Tarixda va ayni kunlarga qadar saqlanib kelayotgan bu amaliy san'at turlari kelgusida yanada qadrlanadi, ardoqlanishi. Zero, o'yib, chizib, tirnab, bo'yab ishlangan, takrorlanmas naqshlar inson idrokining, odam his-tuyg'ularini ifodasidir.

Asrlar davomida yaratilgan ulkan madaniy boyligimiz, xususan o'zbek milliy xalq amaliy san'ati keng tarqalgan turlarining o'ziga xos tomonlari, maktablari, bajarish texnologiyasi uslublari, ularni yaratgan ustalarning muborak nomlari mangu yo'qolish bo'sag'asida. Ana shu sababli bu noyob san'at durdonalarini saqlash, ularni yoshlarga o'rgatish muhim.

Taklif va tavsfiyalar:

Uzluksiz ta'lim – tarbiya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni ramziylikka oid bilimlarini shakllantirishni takomillashtirish vaqti edi.

1. Kasb xunar kollejlari raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlashda dars samaradorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun badiiy

asarlarni to'g'ri tahlil qila olishga o'rgatib, milliy ramziylikka oid bilimlarni shakllantirib borish lozim.

2. O'zbekiston maydonida cheksiz ma'naviy boyliklarimiz bor. Ularni o'rganish uchun milliy ramzlarni o'qish alifbosi mezonlarini ishlab chiqish kerak.
3. Bunda ilmiy ishlarni o'rganib o'zbek milliy ramziyliklarni metodik ishlab chiqib tahlil qilindi. O'zbek milliy ramzlarini Kasb xunar kollejlarda o'rgatish metodikasi yoritildi.
4. Zamonaviylik bilan moziy amaliy san'atini o'qish alifbosi yaratilsa yanada yaxshi bo'ladi.

Biz ilmiy ishimizda o'zbek xalq amaliy san'atining ba'zi qirralarini o'rganishgagina etiborimizni qaratdik.

Demak, Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislar tayyorlashda milliy ramzlarni ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishni takomillashtirishni davom ettirib boorish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Shunday ekan hali o'zbek xalq amaliy san'atining ochilmagan qirralari bisyor. Uni uzluksiz o'rganib, tadqiq etib borish hammamizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 1992. -
2. Karimov. I.A Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyoti poydevori. –T.: SHarq, 1997.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. –T.: Ma'naviyat, 2008. – 2009-y.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. -T.: O'zbekiston, 2000. -112 b.
5. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. –T. O'zbekiston, 2009.
6. Karimov.I.A.O'zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoillari .–T: O'zbekiston, 1995 .
7. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. –T.: Xalq merosi, 1993.
8. Azimov I. O'zbekiston naqshu nigorlari T., G'.G'ulom nomli Adabiyot va san'at nashriyoti 1987, 142 b.
9. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. –T.: Mehnat, 1991.
10. S.S.Bulatov, O'.Mansurov. Milliy me'morchilikda amaliy san'at falsafasi. –T.: Fan, 2005.
11. Bulatov S.S., Yuldashev X.A., Tursunaliev N.YU. Kulolchilik san'ati. Qo'llanma. -T.: Nizomiy nomli TDPU, 2002. -31 b.
12. Bulatov S.S., Yuldashev X.A. Kasb-hunar kollejlarda me'moriy bezak san'ati yo'nalishi bo'yicha «Ganch o'ymakorligi» fanidan eksperimental namunaviy o'quv dasturi. –T.: O'MKHTRI, 2003.- 15 b.
13. Bulatov.S.S, Salimov.S, Muxtorov.A. SHerdor madrasasi bezaklarining sirli olami. – T.: Talqin, 2007.
14. Bulatov.S.S, Tolipov.N. Guzallik falsafasi (Monografiya). - T., “Fan va texnologiya”, 2008-y
15. Bulatov S.S. Sharqlarning unsiz ovozi. Yosh kuch jurnali.1991, № 10

16. Bulatov S.S., Ashirova M.O. Amaliy san'at qisqacha luqati. Qomuslar bosh tahririyati T., 1992, 47b.
17. Berezikov. E. SHaxrisabz naqshlari. "Sovet O'zbekiston san'ati" jurnali. 1980-y
18. Zohidov P.SH. Zeb ichra ziynat. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985-y.
20. Zohidov P.SH. Me'mor san'ati. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985-y
21. Zohidov P.SH. Farg'ona naqshi (xalq ustasi Saidahmad Norquziev albomidan). - T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1960.
22. Imomov. K. Quyoshga qo'ngan qush. Sirli olam. 2002, № 2
23. Islom dini asoslari haqida. O'zbekiston. 1993
24. Mustaqillik:Izohli ilmiy-ommabop lug'at Mualliflar: M. Abdullaev, M. Abdullaeva, F.Abdullaeva.G. Abdurazzoqova. –T.: "SHarq", 2006.
- 25.Mallaev Q.N. Navoiy ijodiyotining xalqchil negizi. –T.: O'qituvchi, 1980.
- 26.Mahmudov Mahkam. Ahli dil: (ma'naviy olam sirlari). -T.: O'qituvchi, 1997-y
- 27.Mirzakalon Ismoiliiy. Inson husni. Axloq-odob mavzusidagi suhbatlar (nashrga tayyorlovchi T.Malik) –T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.
- 28.Mirzahmedov M.X. Boshlang'ich badiiy naqsh ishlash metodikasi. – T.: O'qituvchi, 1976-y.
- 29.Muhammad Sodiq, Muhammad YUsuf. Tafsili hilol № 29, O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlar diniy boshqarmasi. –T.: 1991-y
- 30.Nig'monov Bahrom hoji Abduvosiq hoji o'g'li. Naqsh kompozitsiyalarini tuzish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. 96 b.
- 31.Salohiddinnova. M. Islomiyat va ilm. –T.: Movorounnaxr, 2004.
- 32.Sarsenbaeva R.M. Mehnat ta'limi negizida o'quv-tarbiyaviy tadbirlar o'tkazishning ilmiy-metodik asoslari (xalq hunarmandchiligi misolida)
- 33.Samarqand (Kirish suzi mualliflari V.A.Bulatov, G.V.SHishkina)-T.: G'G'ulomov nomli adabiyot va san'at nashr., 1986
34. Temur tuzuklari . (A.Sug'uniiy va X.Karamatov tarjimasii. B.Ahmedov tahrir) – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.

35. Usmonov O. Komoliddin Behzod va uning naqqoshlik maktabi. –T.: Fan, 1977.
36. Egamov X. Bo'yoqlar bilan ishlash. -T.: O'qituvchi, 1981-y.
37. Ergashev Q. YOshlarning ma'naviy tarbiyasi. –T.: Ma'naviyat, 1999. -40 b.
38. O'zbek milliy entsiklopediyasi. –T.: 2000. 1- jild.
39. O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar). Tahrir hay'ati: H. Karamatov, N. Jo'raev, T. Quziev. –T.: “SHarq”, 2001. 240b. –(O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 yilligiga bag'ishlanadi).
40. Qosimov Q. Naqqoshlik: Badiiy shakl to'garagi mashg'ulotlarining mazmuni va metodikasi. (To'garak rahbarlari uchun qo'll.) -T.: O'qituvchi, 1982. -72 b.
41. Qur'oni Karim (Tarjima va izohlar, muallif Alovuddin Mansur). –T.: «CHO'lpon», 1992-y.
42. Fan va turmush. O'. Alimov. № 10. 1989-y.
43. Fan va turmush. № 5-6. 2007-y.
44. G'ulomov. K. Amaliy san'at. –T.: Iqtisod-moliya, 2007.
45. Xudayberganov. K. YOzuvlarga yashiringan tarix. –Xiva.: Xorazm, 1996-y.
46. Xolmatov. B. Naqqoshlik. –T.: Iqtisod-moliya, 2007. -64 b.
47. Xalq ta'lim jurnali. 1992. 10-12 son.
48. Haqqulov A. Ta'mir san'ati. -T.: Mehnat, 1991. -100 b.

MUNDARIJA

Kirish.....	----
I BOB. Kasb-hunar kollejlarda hunarmandchilik darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkel etish.....	----
1.4. Kasb-hunar kollejlarda hunarmandchilik darslarini samaradorligini oshirish uchun fan o'qituvchisiga qo'yiladigan asosiy talablar.....	----
1.5. Kollej o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirishda sharq olimlarining pedagogik qarashlaridan unumli foydalanish.....	----
1.6. Kasb-hunar kollejlarda ilg'or zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, hunarmandchilik sirlarini o'rgatishni takomillashtirish.....	----
II BOB. Kasb-hunar kolleji talabalariga hunarmandchilik sirlarini o'rgatishda milliy qadriyatlarimizni tutgan o'rni.....	----
2.1. Qadriyatlarimizni saqlash uchun mamlakatimizda olib borilayotgan chora tadbirlar va ularni o'quvchilar ongiga singdirish.....	----
2.2. Dars jarayonida milliylik ramzlaridan samarali foydalanib, o'quvchilarda hunarmandchilik sirlarini rivojlantirish	----
2.3. Hunarmandchilikni revojlantirishda o'zbek xalq amaliy san'ati to'garak mashg'ulotlaridan keng foydalanish.....	----
III.BOB Xalq hunarmandchiligi misolida kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatishning shakl va yo'llari.....	----
3.1. Kollej o'quvchilarini amaliy san'atga o'rgatishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish.....	----
3.2. Tajriba sinov ishlari natijalari.....	----
Xulosa.....	----
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	----
Ilovalar.....	----